

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

QO'SHSAHIFADA –
SAMARQAND VILOYATI

FAOLIYATDA YANGICHA ONDASHUV

AMALDA IJOBIY
NATIJALAR BERMOQDA



O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda tizimda amalga oshirilgan izchil islohotlar sohaning tashkiliy tuzilmasi va mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirishga qaratildi.



12–13



USHBU SONDA:

12 BALLIK ME'YOR
VA 107 NAFAR
HAYDOVCHI



2

ГЕНЕРАЛНИНГ
XA'ET FORMULASI

Ички ишлар ходимининг оиласида хотиржамлик бўлса, у бор эътиборини Ватан ҳимоясига қаратади.

4–5

17

MA'NAVIY
«FILTR»IMIZ
BUZILMASIN



Raqam ortidagi tizim

12 BALLIK ME'YOR VA 107 NAFAR HAYDOVCHI

Jarima
balli tizim
qanday
ishlayapti?

Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar statistik ma'lumotlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq har bir raqam ortida muayyan muammo, uni hal etishga qaratilgan mexanizm va kutilayotgan natija mavjud. «Raqam ortidagi tizim» ruknida sohadagi dolzarb mavzular rasmiy manbalar, huquqiy hujjatlar va ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

MAQSAD – XAVFLI HAYDOVCHILARNI ERTA ANIQLASH

Joriy yilning may oyida IIV JXX Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan e'lon qilingan statistika jamoatchilik e'tiborini tortdi: O'zbekistonda 107 nafar haydovchining to'plagan jarima ballari 12 va undan yuqori ko'rsatkichga yetgan. Bir qarashda bu navbatdagi raqamlardek tuyulishi mumkin...

Mamlakatimizda 2025-yil 1-iyundan boshlab haydovchilar uchun jarima balli tizimi amal qila boshladi. Ilgari qoidabuzarlik sodir etgan shaxs faqat jarima to'lash bilan qutulgan bo'lsa, yangi tizim haydovchining muayyan vaqt ichida yo'l harakati qoidalariga qanchalik rioya qilayotganini izchil baholash imkonini bermoqda.

Bu o'zgarish tasodifiy qaror emas. So'nggi yillarda insonlar o'limiga, og'ir jarohatlarga va iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'layotgan yo'l-transport hodisalari davlatni yangi mexanizmlar izlashga undadi. Natijada asosiy e'tibor huquqbuzarlik sodir bo'lganidan keyin jazolashga emas, balki xavfli haydovchilarni ertaroq aniqlab, ogohlantirishga qaratildi.

Jarima balli tizimining mohiyati shundaki, ayrim qoidabuzarliklar uchun ma'muriy jazo bilan birga ball ham hisoblanadi. Ballar bir yil davomida yig'ilib boradi va ularning umumiy miqdori 12 dan oshsa, haydovchini transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish masalasi sudda ko'rib chiqiladi. Tizim endi shunchaki hisob-kitob vositasi emas, balki aniq

huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi mexanizm sifatida ishlay boshladi.

INTIZOM DARAJASI

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda **165 mingdan** ortiq haydovchiga jarima ballari hisoblangan. Bu raqam ancha katta tuyulsa-da, uni **12 ballik** chegaraga yetgan **107 nafar** haydovchi bilan taqqoslaganda mutlaqo boshqa manzara namoyon bo'ladi. Sababi – ball olganlarning mutlaq ko'pchiligi oxirgi nuqttagacha bormagan. Bu esa tizimning asosiy kuchi haydovchilik huquqidan mahrum qilishda emas, balki ularni xavfli chegaraga yetmasdan to'xtatib qolishda ekanini isbotlaydi.

Yangi tartibga ko'ra, har bir qoidabuzarlik haydovchi umumiy harakat tarixining bir qismi sifatida qayd etiladi va uning yo'ldagi xulq-atvori yaxlit baholanadi. Bu yondashuvning zahirida muhim mantiq mavjud: avtohalokatlarning katta qismi tasodifiy ehtiyotsizlik emas, balki muntazam ravishda qoidalarni mensimaslik oqibatida yuz beradi. Jarima balli tizimi aynan shu xavfli tendensiyani erta bosqichda aniqlashga qaratilgan.

HUQUQIY MAJBURIYAT

Eng yuqori ko'rsatkich ikki ballni tashkil etishini hisobga olsak, haydovchi qisqa vaqt ichida bir necha bor jiddiy qoidabuzarlik sodir etmasdan turib 12 ballik me'yordan o'ta olmaydi. Bu tizimning tasodifiy xatolarni emas, balki surunkali xavfli xatti-harakatlarni nishonga olayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda jamoatchilik muhokamasi asosan hay-

dovchilik guvohnomasidan ayrilishi mumkin bo'lgan 107 nafar shaxs atrofida kechmoqda. Vaholanki, tizimning asosiy vazifasi bu emas. Aslida, eng muhim natija statistikada aks etmaydigan jarayonda – haydovchilarning qaror qabul qilish madaniyati o'zgarayotganida namoyon bo'lmoqda.

Agar ilgari haydovchi tezlikni oshirganda faqat cho'ntagiga zarar yetishini o'ylagan bo'lsa, endi u har bir xatosi keyingi taqdiriga ta'sir qilishini anglamoqda. Bu esa qoidalarga rioya qilishni nafaqat huquqiy majburiyat, balki shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan ham muhim omilga aylantiradi.

XULOSA CHIQARISHGA HALI ERTA

Jarima balli tizimi haqida uzil-kesil xulosa chiqarishga hali erta, chunki yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi har qanday islohotning haqiqiy samarasi uzoq muddat davomida shakllanadi. Biroq bu dastlabki natijalarni baholab bo'lmaydi, degani emas.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, jazoning og'irligi emas, balki uning muqarrarligi muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ko'plab davlatlarda jarima balli tizimining joriy etilishi aynan shu tamoyilga asoslangan. Haydovchi qoidabuzarlik uchun bir marta jarima to'lab qutulishi mumkin, ammo uning harakat tarixi saqlanib qolishi va keyinchalik jiddiy huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi ehtimoli harakat madaniyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham ushbu mexanizm aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Buni

haydovchilar munosabatida kuzatilayotgan o'zgarishlar ham tasdiqlaydi. YHXX tomonidan e'lon qilinayotgan ma'lumotlar, ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalar va huquqshunoslarning sharhlari shuni ko'rsatmoqdaki, haydovchilar endi nafaqat jarima miqdoriga, balki o'z hisobidagi ballarga ham jiddiy e'tibor qarata boshladi.

Jarima balli tizimining bugungi natijalari haqida so'z ketganda, uning huquqiy asoslari va bosqichma-bosqich joriy etilganiga e'tibor qaratish lozim. IIV JXX YHXX Axborot xizmati boshlig'i, katta leytenant Zoir Yo'ldoshevning ma'lum qilishicha, mazkur mexanizm 2025-yil 20-fevralda qabul qilingan «Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida» gi qonun bilan mustahkamlangan. Keyinchalik Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi tegishli qaroriga muvofiq jarima ballarini hisoblash va qo'llash tartibi tasdiqlangan.

Ushbu tartibga muvofiq, yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq 12 turdagi ma'muriy huquqbuzarlik uchun asosiy jazoga qo'shimcha ravishda jarima ballari ham hisoblanadi. Huquqbuzarlikning xavfli darajasidan kelib chiqib, haydovchilarga 0,2 balddan 2 balgacha miqdor belgilangan.

– Ilgari jarima ballari asosan yo'l-patrol xizmati xodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan

huquqbuzarliklar bo'yicha hisoblanardi, – **deydi katta leytenant Zoir Yo'ldoshev.** – 2026-yil 1-apreldan boshlab esa eng ko'p uchraydigan va yo'l harakati xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi to'rt turdagi qoidabuzarlik kameralar orqali qayd etilgan taqdirda ham jarima ballari hisoblanmoqda. Bu tizimning qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi.

YHXX ma'lumotlari yangi cha yondashuvning dastlabki ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. **Xususan, jarima balli tizimi amaliyotga joriy etilgan 2025-yil 1-iyundan yil yakuniga qadar haydovchilar aybi bilan sodir etilgan yo'l-transport hodisalari 31,2 foizga kamaygan. Umumiy avariya soni esa avvalgi yilning mos davriga nisbatan 6,3 foizga qisqargan.**

Ehtimol, kelgusi yillarda bu raqamlar o'zgarar, tizimning ayrim jihatlarni takomillashtirishga ehtiyoj tug'ilar. Lekin hozirning o'zida aytish mumkinki, jarima balli tizimi shunchaki navbatdagi huquqiy norma sifatida emas, balki amalda ishlayotgan mexanizm sifatida shakllana boshladi.

Shu ma'noda, may oyida e'lon qilingan 107 nafar haydovchi haqidagi ma'lumot oddiy statistika emas. U mamlakatda yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi yangi yondashuvning dastlabki natijalarini ifodalovchi raqamdur. Va har qanday raqam kabi, uning ortida ham muayyan tizim, aniq maqsad va tizimli islohot turibdi.

Musulmon ZIYO,
jurnalist.

Davlat mustaqilligining 35 yilligi oldidan

YANGI O'ZBEKISTONNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI

xavfsizlik va taraqqiyot kafolati

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh qilish, xalqchil va zamonaviy tizimga aylantirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ilgari asosan nazorat va jazolovchi sifatida qaralgan tizimda bugun «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili ustuvorlik kasb etmoqda. Ayniqsa, xalq bilan ishlash, fuqarolar murojaatlarini tinglash, muammolarni joyida o'rganish va hal etish masalasida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Yurtimizdagi har bir mahalla, har bir ko'cha va xonadon tinchligi ortida huquq-tartibot organlari xodimlarining kecha-yu kunduz mehnati mujassam. Shu bilan birga mahallalarni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish maqsadida aholi gavjum joylar va ko'chalarga 4 861 ta, ko'p qavatli uylarga 1 367 ta videokuzatuv kameralari, mahallalar kirish-chiqish joyiga 3 869 ta biometrik kuzatuv kameralari, ko'p qavatli uylarga 7 452 ta domofon o'rnatilganini ham alohida qayd etish zarur. Shuningdek, 3 335 ta namunaviy «xavfsiz ko'cha», 2 206

ta namunaviy «xavfsiz yo'lak» yaratildi. Natijada 7 800 ta mahalla jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirildi.

Jizzax viloyatida ham bu borada ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha 125 ta namunaviy «xavfsiz ko'cha», 72 ta namunaviy «xavfsiz yo'lak» tashkil etildi. Bugungi kunda 68 ta mahalla jinoyatchilikdan xoli hudud hisoblanadi. Bu nafaqat ichki xavfsizlik masalasida erishilgan yutuqlar, balki investitsiya va sayyohlik rivojlanishiga ham kafolat hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda

mamlakatimizga investor va sayyohlarni jalb qilishda ichki ishlar organlarining ham o'rnı, hissasi katta desak, sira mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har qanday investor avvalo xavfsiz va barqaror muhitni izlaydi. Sayyoh esa tinch, tartibli va xavfsiz hududga borishni xohlaydi. Yurtimizda jamoat xavfsizligining ta'minlanishi, turistik hududlarda qulay sharoit yaratilishi, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinayotgani mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya faolligi barqaror o'sish dinami-

kasini namoyon etmoqda. Xususan, 2025-yilda 43,1 mlrd dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, belgilangan reja 103 foizga bajarildi va bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshdi. Bugungi kunda jami 3 152 ta loyihadan iborat, umumiy qiymati 319,3 mlrd dollarga teng investitsiya portfeli shakllantirilgan. 2026-yilda esa 50,2 mlrd dollar investitsiyalarni o'zlashtirish va 2 289 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgani iqtisodiy o'sishning mustahkam asoslari yaratilayotganini ko'rsatadi.

Jizzax viloyatida o'tgan yil asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 18,7 trln so'mni tashkil qilib, 10,5 foizga oshgan-


ligini ko'rish mumkin. Joriy yilning o'tgan uch oyida esa asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 5 trln 772,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Viloyatda to'qimachilik, avtomobilsozlik, turizm, geologiya, oziq-ovqat, neft-kimyo, qurilish va qurilish materiallari, charm-poyabzal bo'yicha yirik loyihalar asosiy investitsiya drayverlari hisoblanadi.

Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonning yangi ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadriini ulug'lash, xalq ishonchini mustahkamlash va mamlakatda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Tinchlik va xavfsizlik bor joyda taraqqiyot, investitsiya va farovon hayot bo'ladi.



Jamila BOBANAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

7 800 ta mahalla jinoyatchilikdan xoli hudud



Halollikni shior qilgan xodimlar

VIJDON VA BURCH SINIVI

Chilonzor tumanidagi 4-son IIB hududiga qarashli 497-patru yo'nalishining ikkinchi bosqichida xizmat olib borayotgan PPX inspektorlari — safdorlar Qamariddin Bekmurodov va Sardor Jovliyev tomonidan «Seoul Mun» sayilgohi avtoturargohida shubhali fuqarolar aniqlandi. Xodimlar ulardan avtomashinadan tushishlari va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlarini so'radi. O'zlarini Q. Jo'rayev va D. Zokirjonov deb tanishtirgan fuqarolar xolislar ishtirokida ko'zdan kechirildi. Mazkur jarayonda ularning yonidan hamda Q. Jo'rayev boshqaruvidagi «MG5 Scor-

pion» rusumli avtomashina salonidan giyohvandlik vositalari aniqlandi. Ushbu holat qonun talablariga muvofiq rasmiylashtirilib, tegishli tartibda hujjatlashtirildi. Biroq fuqaro D. Zokirjonov qonun ustuvorligini chetlab o'tishga uringan holda bo'lib o'tgan holatni rasmiylashtirmaslik evaziga xodimlarga 7 000 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi.

— Ochig'ini aytсам, xizmat faoliyatim davomida bunday holatlar kamdan-kam uchraydi. Ammo ba'zan ayrim fuqarolar qonun oldidagi javobgarlikdan qochish maqsadida pora berishga urinishadi, —

deydi safdor Qamariddin Bekmurodov. — Biz har doim fuqarolarga pora berish ham, pora taklif qilish ham qonunbuzarlik ekanini tushuntiramiz. Chunki bunday harakat insonni muammodan qutqarmaydi, aksincha, uning huquqiy ahvolini yanada og'irlashtiradi.

Ichki ishlar organi xodimi uchun eng muhim mezon — qonunga sodiqlik va vijdon bilan xizmat qilishdir. Biz qasamyod qilganmiz. Xalq ishonchini oqlash, qonun ustuvorligini ta'minlash bizning eng asosiy vazifamiz hisoblanadi. Shu bois mazkur holat yuzasidan IIV SHXBB Toshkent

shahar boshqarmasiga tegishli tartibda bildiri kiritishga majbur bo'ldim.

Ko'rilgan tezkor chora-tadbirlar natijasida shu kuni soat 18:35 da Chilonzor tumanidagi 2-son IIB binosida fuqaro D. Zokirjonov safdor Qamariddin Bekmurodovga pora berish vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi. Holat xolislar ishtirokida belgilangan tartibda rasmiylashtirildi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Ички ишлар органларида «генерал» унвонига эришиш шунчаки мансаб ёки мартаба эмас, балки уйқусиз тунлар, масъулият ва Ватан олдидаги бурчни адо этишга бахшида қилинган умрдир.

Бугунги суҳбатдошимиз фаолияти давомида тўртта вилоят ИИБни бошқарган, Ички ишлар вазирининг биринчи ўринбосари, ИИБ Академияси бошлиғи каби қатор масъул лавозимларда хизмат қилган, пенсияга чиққандан кейин ҳам Жиззах вилояти ва Тошкент шаҳри Халқ қабулхоналари мудирлиги сифатида эл дардига малҳам бўлган, айна пайтда ИИБ Академиясида ёшларга устозлик қилаётган истеъфодаги генерал-майор Тоҳир Муллажонов.

– Тоҳир Охунович, илк бор ички ишлар ходими формасини кийган кунингизни эслайсизми? Бугунги улкан тажрибангиз билан ўша пайтдаги ёш ходимга нималар деган бўлардингиз?

– Илк бор хизмат либосини кийган куним елкамга халқнинг осойишталигини таъминлаш масъулияти юкланганини ҳис қилганман. Ўша куни отамни эслаб кўзимга ёш келган... Бор-йўғи етти ёшимда отамдан етим қолган бўлсам-да, у кишининг ҳалоллик, одамларга яхшилиқни илиниш,

айтилган жойга ҳеч қачон кеч қолмаслик, бировнинг вақтини ўғирлаш ҳурматсизлик бўлиши каби ўғитлари бутун ҳаётимда йўлчи юлдуз бўлди. Тиббиёт билим юртини битириб, фельдшерлик қилган бўлсам-да, қалбимдаги асл орзуим – ички ишлар органида хизмат қилиш эди. Шу мақсадда тинмай изландим ва ИИБ Тошкент олий милиция мактабига ўқишга қабул қилдим.

Агар бугунги тажрибам билан ўша пайтдаги ёш ходимга маслаҳат бериш имкони бўлса: «Тўғри йўлдан кетяпсан, олдинда сени жуда катта

синовлар, қийинчиликлар, уйқусиз тунлар кутмоқда. Лекин ҳеч қачон отангнинг ўғитини унутма – ҳалоллик ва интизом сени юксакликка олиб чиқади. Қийинчиликлардан кўрқма, улар сени синдирмайди, аксинча, тоблайдилар», деган бўлардим.

– Узоқ йиллар раҳбарлик лавозимларида фаолият юритган инсон сифатида қабул қилган энг қийин қарорингиз?

– Хизмат йўлим жуда оғир ва тарихий эврилишлар даврига тўғри келди. Биз собиқ иттифоқ даврида ҳам хизмат қилдик. Мустақилликнинг илк кунларидаги ноҳуш хатти-ҳаракатлар, юртимиз атрофида бўлган таҳдидларни ҳам бошимиздан ўтказдик. 90-йиллардаги Фарғона воқеалари вақтида Қўқон шаҳар ИИБ бошлиғи эдим. Бир гуруҳ ғараз ниятли кимсалар шаҳар тинчлигини бузиб, ҳужумлар уюштирганда, вазиятни барқарорлаштириш ва халқни қиргиндан сақлаб қолиш учун жуда тез ва қатъий қарорлар қабул қилишимизга тўғри келган. 2005 йилда Ички ишлар вазирининг биринчи ўринбосари лавозимида ишлаган вақтимда Андижон

шаҳридаги хунрезликлар, тўполонларни бартараф этиш бўйича тузилган тезкор штаб бошлиғи бўлганман. Мана шу воқеаларда қабул қилинган ҳар бир қарор катта синов ва улкан масъулият эди.

– Тақдир сизни ички ишлар органлари тизимида ўзига хос мактаб яратган, соҳанинг чинакам афсоналарига айланган фидойи инсонлар билан елкадош бўлиб хизмат қилиш бахтига мушарраф этган...

– Албатта, тизимда ўтган йилларим мен учун катта тажриба мактаби бўлди. Фаолиятим давомида кўплаб улғу устозлардан таълим олдим, улар билан бир сафда туриб хизмат қилдим. Ҳаётини фаолиятимда ибрат мактаби бўлган олижаноб инсон – генерал-полковник Зокиржон Алматов. Шундай инсонларнинг мактабини кўриш, дуосини олиш ҳар бир ходимга насиб этсин. Чунки бу мураккаб тизимга кириб келиш осон, лекин унда ўзлигини, инсонийлик қиёфасини йўқотмай, ҳаётда муносиб ўрин топиш чинакам матонатни талаб этади.

Шу билан бирга, менинг касбий камолотимда алоҳи-

да ўрин тутган сиймо генерал-майор Гофур Раҳимов эди. У ходимлардан ҳеч қачон ўз ёрдамини, қимматли маслаҳатини аямасди. Бошимизга бирор мушкул иш тушса ёки мураккаб вазиятга дуч келсак, оталарча ғамхўрлик билан йўл кўрсатарди.

Жиноят қидирув соҳасига бутун умрини бахшида этган полковник Гофур Тошматовни ҳам алоҳида эҳтиром билан ёдга оламан. Бу фидойи инсон билан беш йил давомида бирга ишлаш насиб этди. Ундаги самимийлик, касбга бўлган меҳр, ҳалоллик мен учун ҳақиқий ибрат бўлди. Иш кўплигидан кўпинча таомланишга ҳам вақт бўлмасди. Баъзан хоналарига кирсам, иш столининг тортмасини очиб, бир бўлак қотган нонни оларди-да: «Келинг, биргаликда баҳам кўрамиз», дерди. Бу ҳол, айна фидойиликнинг ўзи эди.

– Сизни ўта талабчан ва қаттиққўл раҳбар сифатида таърифлашди?

– Мен буни инкор қилмайман. Лекин бу талабчанлигим, қаттиққўллим замирида ҳеч қачон шахсий хусумат ёки кимгадир ёмонлик қилиш ис- таги бўлган эмас. Менинг энг

Faxriylar — Farg'onada

DIYDORGA NIMA YETSIN!

IIV Toshkent oliy maktabini 1982-yilda tamomlab, uzoq yillar respublikamizning turli hududlarida ishlagan va ayni paytda pensiyada bo'lgan 30 nafarga yaqin faxriylar yaqinda Farg'ona viloyatiga sayohat qilishdi.

Ular viloyatning diqqatga sazovor manzillari, tarixiy qadamjolar va turizm maskanlarini tomosha qilish bilan birga, viloyat IIBda ham bo'lishdi. Boshqarma mutasaddilari va Faxriylar kengashi a'zolari mehmonlarni samimiy kutib olishdi. Ular tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarni bevosita ko'rib, yoshlar bilan samimiy suhbatlashishdi.

Viloyat IIB qoshidagi Tezkor boshqaruv markazi ustozlarda katta taassurot qoldirdi. 2025-yilda foydalanishga topshirilgan ushbu markaz sun'iy intellektga asoslangan yangi tizim asosida boshqariladi. Shu yerdan turib viloyat hududidagi vaziyat avtomatik tahlil qilinishi natijasida jinoyat sodir etib qidiruvda bo'lgan va bedarak yo'qolgan shaxslar, qidiruv-

da bo'lgan transportlar, yo'qolgan va adashib qolganlar, probatsiya hisobida turib, cheklovlarga amal qilmagan nazoratdagi shaxslar aniqlanmoqda. Ko'plab jinoyatlar esa «issiq izida» fosh etilyapti.

Farg'ona viloyati IIB Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika xizmati boshlig'i, podpolkovnik Umidjon Xalikov mehmonlarga situatsion markaz imkoniyatlari haqida gapirib berdi.

Iste'fodagi general-mayor Talat Sattarov mazkur yangi tizim haqida ijobiy fikrlar bildirib, markazda

faoliyat olib borayotgan bilimli va shijoatli yoshlarga omad tiladi.

Faxriylar o'zlari ishlagan davrlardagi sharoit va bugungi imkoniyatlarni bevosita solishtirib, tahlil qilib ko'rishdi. Yosh xodimlarga bunday imkoniyatlardan samarali foydalanib, vatanga muhabbat va kasbga sadoqat bilan ishlash kerakligini maslahat berishdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

биринчи мақсадим – хизмат самардорлигини ошириш, ишнинг меъёрида кетишини таъминлаш бўлган. Хизматда интизом бўлмас экан, самара ҳам бўлмайди. Менинг талабчанлигим ходимларни асраш, уларнинг хатога йўл қўймаслиги учун бўлган. Хизматда қаттиққўл бўлдим, лекин ҳеч қачон ёлғон гапирмадим, фақат ва фақат адолатни ўзимга байроқ қилдим. Шундай ҳолатлар бўлганки, жазони ўтаб қайтган фуқаролар: «Ўшанда мени вақтида тўхтатиб, тўғри қилган экансиз, йўқса бундан ҳам баттар жиноятларга қўл уриб, ҳаётим бутунлай барбод бўларди» деб раҳмат айтишган.

Шу ўринда яна бир гапни айтишим лозим. Яъни, оила ва хизмат ўртасидаги мувозанатни сақлаш ҳам жуда муҳим. **Ички ишлар ходимининг оиласида хотиржамлик бўлса, у бор эътиборини Ватан ҳимоясига қаратади.** Мен хизмат юзасидан қанчалик талабчан ва банд бўлмайин, оиладаги муҳитни, фарзандлар тарбиясини ҳамisha диққат марказида тутишга, уйга фақат ва фақат илиқлик олиб киришга ҳаракат қилганман. Раҳбар сифатида ҳам қўл остимдаги ходимларнинг оилавий шароитларига, уларнинг уйдаги ҳаловатига безътибор бўлмаганман. Чунки мустаҳкам оила – хизматдаги муваффақиятнинг ярми.

– **Бугунги ёш ходимларда сиз кўришни истоган энг муҳим фазилат нима?**

– Мен хизматни бошлаган собиқ иттифоқ даврида анча қийин эди. Хизмат тақозоси билан оилам 10 дан ортиқ жойга кўчиб, сарсон юрган кунларим бўлган. Лекин қийин-

чиликдан қочмадим, ўрганишдан асло эринмадим. Билмаганларимни устозлардан сўраб, тинимсиз ўз устимда ишладим. Бугун ёшларимиз ўз она тилида, замонавий ахборот технологиялари асосида иш юритишади. Техника ва автомашиналарни-ку айтмаса ҳам бўлади. Бизнинг давримизда автомашиналар умуман етишмасди. Ҳозирда профилактика инспекторлари маҳалланинг ўзида, шинам хизмат уйларида яшаб, ишлашяпти. Шундай чексиз имкониятлар бўлатуриб озгина қийинчилик сабаб касбидан воз кечаётган айрим ёшларни кўрсам, тўғриси, хафа бўламан. Шароитнинг қадрига етиш, озгина сабрли бўлиш ва энг муҳими, янги билимларни ўрганишдан асло эринмаслик керак.

Яқинда Академияда сирдарёлик 18 ёшли 1-босқич курсантдан «Қайси мақсадда ўқишга кирдингиз, ўғлим?» деб сўрасам, кўзлари ёниб: «Мен Алматовдек генерал-полковник бўлмоқчиман!» дейди. Ҳайрат ва фахрдан кўзимга ёш келди. Мана, ёшларнинг қалбида қандай шижоат бўлиши лозим!

– **Сиз ўзингизни китобхонлар сафида кўра оласизми? Энг севиб мутулаа қиладиган асарларингиз қайсилар?**

– Китоб ўқимаган одамнинг дунёқараши тор, фикрлаши юзаки бўлиб қолади. Мен кўпроқ тарихий, детектив ва соҳамизга оид адабиётларни ўқийман. Энг сеvimли асарларим эса буюк адибимиз Тоҳир Малик қаламига мансуб. Бу меҳр Бухоро вилояти ИИБ бошлиғи бўлиб ишлаган кезларимда, вазириимиз Зокир Алматовнинг топшириғи билан «Шайтанат» сериалини тас-



вирга олаётган гуруҳни кутиб олганимда янада кучайган. Ўшанда Тоҳир аканинг оғир жомадонига ҳайрон бўлиб қараб, ичида нима борлигини сўраганимда, «Буларнинг ҳаммаси китоблар, бўш вақтда ўқийман» деб жавоб берганди. Бу гап ҳаётимда туб бурилиш ясади ва адибнинг «Шайтанат»ини ва бошқа асарларини ўқиб чиқдим. Улар шунчаки тўқима асарлар эмас, жиноят оламининг асл қиёфасини ва инсон фожиасини теран очиб берган ҳақиқий дурдона.

Кейинчалик ИИБ Академияси бошлиғи бўлиб ишлаган пайтларимда Тоҳир Малик ҳам шу даргоҳда ўқитувчи эди. У киши билан соатлаб суҳбат қилардик. Ички ишлар ходимлари меҳнатини жуда қадрлайдиган, касбимизнинг паст-баландини теран англайдиган бу инсон билан жиноятчиликнинг психологик илдизлари ҳақида фикр алмашардик.

– **Бугунги суҳбатимиз-**

да биз кам тўхталган, аммо сиз учун алоҳида аҳамиятга эга бўлган яна қайси муҳим фикрни айтишни истардингиз?

– Тўғриси, ички ишлар органларида узоқ йиллар машаққатли хизмат йўлини босиб ўтган фахрийларимиз ҳақида гапиришни истардим. Фахрийлар тизимнинг тирик тарихи ва мустаҳкам пойдеворидир. Масалан, маҳаллаларда хизматни бошлаётган ёш профилактика инспекторларига шу ҳудудни беш қўлдек биладиган, кўпни кўрган фахрийлар устоз сифатида бириктириб қўйилса, ишда сифат ва сама-

радорлик юқори бўлади. Биз уларнинг бой амалий тажрибаси ва улкан салоҳиятидан тизим ривожини йўлида унумли фойдаланишимиз керак. Яна бир муҳим масала – ҳар бир ходим ўзидан кейин ишнинг кўзини биладиган муносиб шогирд қолдириши лозим. Бир сўз билан айтганда тизимда устоз-шогирдлик аънаналари янада такомиллаштирилиши зарур.

– **Мазмунли суҳбатингиз учун ташаккур!**

Ўз мухбиримиз Сарвар СОБИРОВ суҳбатлашди.

P.S. Генерал билан суҳбатлашарканман, иш столи устида турган Абу Наср Форобийнинг «Фозил одамлар шаҳри», «Темур тузуклари» ва варақлари орасига хатчўп қўйилган Сирожиддин Саййиднинг шеърий тўплами беихтиёр диққатимни тортди. Бу ҳолат унинг китоб билан доимий дўстлигидан, талабчан раҳбар қиёфаси замирида теран тафаккур ва шеъриятга ошно қалб яширинганидан далолат берарди. Қутлуғ ёшда ҳам устоздаги шижоат ва ғайрат эса бугунги ёшлар учун чинакам ибратдир.

Soha fidoyilari

DO'RMONLIK ZOHIDJONNING BAXTI

Navoiy viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni mutaxassisi katta serjant Zohidjon Roziqov faoliyati davomida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash yo'lida fidoyilik ko'rsatib kelmoqda.

Lavhamiz qahramonining kasb mahorati, ayniqsa, aholi gavjum hududlarda, shubhali holatlarga hushyorlik bilan tezkor munosabat bildirishda yaqqol namoyon bo'ladi. U xizmat o'tash chog'ida keksa va nogironligi bo'lgan fuqarolarga ko'mak beradi, yoshlar bilan suhbatlar o'tkazib, ularni vatanparvarlik va qonunga hurmat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Uning bolaligi Karmana tumanining «Do'rmon» mahallasida o'tgan. Hozir ham shu mahallada katta oilasi bilan baxtli hayot kechirmoqda. Zohidjonning

bugungi yutuqlari zamirida otasi Zoyir aka va onasi Bibigul opaning ko'p yillik mehnati, sabr-toqati va chekkan mashaqqatlari mujassam.

– Farzandlarimizning to'ng'ichi Zohidjon mehnatkash, mas'uliyatli va katalarga hurmatli bo'lib ulg'aydi. Bugun uning el-yurtimiz osoyishtaligi yo'lida sidqidildan xizmat qilayotganidan mamnunmiz, – deydi Zoyir aka.

Ahillik, sabr-toqat va mehr-oqibat asosida qurilgan mazkur oila joriy yilda «Namunali oila» ko'rik-tanlovining res-

publika bosqichida faxrli birinchi o'rinni egalladi. Xizmatdagi muvaffaqiyat, hayotdagi barqarorlik va qalbdagi xotirjamlik avvalo ana shu muqaddas qo'rg'ondan boshlanadi. Zohidjon Roziqov ham jamiki erishgan natijalarida oilasining o'rni beqiyos ekanligini e'tirof etadi.

– Turmush o'rtog'im ichki ishlar organi xodimi ekanligidan faxrlanaman. Erishgan yutuqlarimiz – birgalikdagi mehnatimiz va ahilligimizning samarasi, – deydi ayoli.

Xulosa qilib aytganda, xizmatda mas'uliyatli, oilada mehribon farzand, sadoqatli turmush o'rtog'i va g'amxo'r ota bo'lgan katta serjant Zohidjon



Roziqovning hayot yo'li ko'pchilik yosh xodimlarga haqiqiy ibrat bo'la oladi.

Mahliyo XOLOVA, o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI



O'zbekiston Respublikasi IIV Birlashgan tahririyati hamda «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati o'rtasida o'zaro hamkorlik Memorandumini imzolashga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Transport tizimida xavfsizlikni ta'minlash va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadidagi ushbu hujjatni Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor Bahodir Mirzarahimov va «O'zbekiston temir yo'llari» AJ boshqaruv raisi Zufar Narzullayev imzoladi.

Ushbu Memorandum temiryo'l transporti obyekt-

lari va hududlarida xavfsizlik madaniyatini yuksaltirish, jamoat tartibini saqlash hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, IIO tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida jamoatchilikni tezkor, xolis va sifatli axborot bilan ta'minlash bosh maqsad etib belgilangan.

Tadbirda Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor B. Mirzarahimov so'zga chiqib, bugungi

kunda transport obyektlari va hududlarida xavfsizlikni ta'minlashda nafaqat soha xodimlari, balki keng jamoatchilik va OAVning o'ri beqiyos ekanligini alohida ta'kidladi. Shuningdek, so'zga chiqqan taniqli shoir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, iste'fodagi polkovnik Zikrilla Ne'matov hamda IIV Birlashgan tahririyati bosh muharriri, podpolkovnik Xurshid Ro'ziyevlar ushbu hamkorlikning istiqbollari, ma'naviy-

ma'rifiy va huquqiy targ'ibot sohasida samara berishi xususida fikr-mulohazalar bildirdilar.

Hamkorlik doirasida yo'lovchilar va temiryo'l sohasi xodimlari o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlari yangicha yondashuvlar asosida tashkil etiladi. Bunda asosiy e'tibor xavfsizlik qoidalariga rioya qilish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan maqolalar, ta'sirchan videoroliklar, infografikalar tayyorlashga

qaratiladi. Bundan tashqari, temiryo'l vokzallari va poyezdlarda huquqiy-targ'ibot materiallari hamda ijtimoiy reklamalarni joylashtirish, IIV Birlashgan tahririyat nashrlarini keng targ'ib etish, qo'shma brifinglar, press-turlar va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli ravishda birgalikda tashkil etish rejalashtirildi.

Azamat AXMATOV,
IIV T va TOXTD
Axborot guruhi bosh mutaxassisi, mayor.

Yoshlar — kelajak bunyodkori

AQSHlik QO'MONDONni HAYRATLANTIRGAN LEYTENANT

Nazlining tarix faniga mehri bo'lakcha edi. U buyuk ajdodlar jasoratini o'rgangani sayin, ko'ngliga tukkan orzulari yanada ortib borardi. Ana shu qiziqish va qat'iyat uni IIV Qoraqalpoq akademik litseyi sari yetakladi.

– Ichki ishlar organlari xodimi bo'lishdek maqsad sari bosgan qadamlarim doim ham silliq kechmagan, – deydi leytenant Nazli Paluaniyazova. – Ota-onam bizlarni kasb-hunar egallashimizda doim qo'llab-quvvatlashgan. Ammo oliy o'quv yurtiga tayyorgarlik jarayonida qo'shimcha darslarga to'lov qilishga oilamizning moddiy imkoniyati yetmagan. Shu bois ba'zi fanlardan mustaqil tayyorlanishimga to'g'ri kelgan. Kutubxona ikkinchi uyimga aylangan.

Maqsadi yo'lida tinimsiz harakat qilgan insonga niyatlari doim yo'ldoshdir. Nazli Paluaniyazovada ham shunday bo'ldi. U 2021-yilda Jamoat xavfsizligi universitetiga qabul qilingan kam sonli qizlar orasida eng yuqori ball to'plab, ro'yxatda birinchi bo'ldi. Mazkur bilim maskani uning uchun iroda maydoniga aylandi. Universitetdagi uch yillik tahsil Nazlini soha mutaxassisi va bo'lajak temir intizomli ofitser sifatida tobladi. O'qishni imtiyozli diplom bilan tamomlagani esa

Nazli oynayi jahonda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi lavhani qiziqish bilan tomosha qilar ekan, otasiga yuzlanib: «Men katta bo'lsam, albatta, inspektor bo'laman!» deb yuborganini o'zi ham sezmay qoldi. Bu so'zlar jajji qizaloq qalbida tug'ilgan Vatan posboni bo'lishdek ezgu maqsadning ilk kurtaklari edi.

uning mehnatlariga berilgan munosib baho bo'ldi.

Nazli ilk xizmat faoliyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Qo'ng'iro'tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi mutaxassisi sifatida boshladi. Nazariy bilimlarini ustoz, kapitan Abdibek Jadigerovning yo'l-yo'riqlari asosida amaliyot bilan uyg'unlashtirdi. Ayni paytda leytenant Nazli Paluaniyazova Toshkent shahar Uchtepa tumani IIOFMB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limida xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor lavozimida xizmat qilmoqda. U har kuni odamlar orasida kimningdir muammosiga yechim izlaydi, kimningdir quvonchiga sherik.

Lavhamiz qahramonining til o'rganish qobiliyatiga ham havas qilsa arziydi. Chunki u rus tilidan C1, turk tilidan B2 darajadagi sertifikatlariga ega. Hozirda ingliz tilidan o'z bilim da-

rajasini baholovchi imtihonlarga tayyorgarlik ko'rmoqda.

– Nukus shahridagi Savitskiy nomidagi san'at muzeyi uyimizga juda yaqin edi, – deb eslaydi Nazli. – Bu yer doim xorijlik sayyohlar bilan gavjum bo'lardi. Ular bilan muloqot qilish men uchun juda qiziqarli bo'lgan. Chet tillarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqim ham aynan o'sha kezlarda uyg'ongan. Keyinchalik universitetda o'qib yurgan vaqtimda turk tilini mustaqil o'rgandim.

Turk tilini yaxshi o'zlashtirganim uchun Milliy gvardiya delegatsiyasi tarkibida tarjimon sifatida ishtirok etib, Turkiya Respublikasi Jandarmeriya akademiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ldim.

Yana bir quvonchli voqea kursantlik davrimda AQSHning Missisipi shtati Milliy gvardiyasi qo'mondoni, general Jenson Boylz bilan uchrashuvda yuz

berdi. Ingliz tilida bergan savolim generalning e'tiborini tortdi. U Missisipi shtati an'anasiga ko'ra, «Generaldan yelkama-yelka», deb yozilgan esdalik tangasi (medaloni)ni berdi. Bu uchrashuv va e'tibor til o'rganishga bo'lgan qiziqishimni yanada oshirdi.

O'ziga nisbatan talabchan qahramonimizni xizmatdan tashqari vaqtlarda voleybol maydonida ham ko'rish mumkin. Ichki ishlar vaziri kubogi musobaqalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoasi bilan qo'lga kiritgan kumush medali uning sportda ham faol ekanligidan dalolat beradi. Sirasini aytganda, leytenant Nazli Paluaniyazova o'z oldiga ulkan marralarni qo'yib, qalbi qasamyodiga esh bo'lib, dadil qadam tashlayotgan yosh, iqtidorli xodimalardan biri. U kasbiy mahoratini tinimsiz oshirib, insoniylik tamoyillarini qonun ustuvorligi bilan uyg'unlashtira oladi. Bu yo'lda doim izlanishda.

Gulnoza TURGUNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

SUN'IY INTELEKTNI JORIY ETISH – DAVR TALABI

Zamonaviy dunyo manzarasida sun'iy intellekt ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar evolyutsiyasini belgilovchi fundamental omilga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda u nafaqat texnologik taraqqiyotning yangi yo'nalishi, balki global iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim, sanoat va davlat boshqaruvida mutlaqo yangi qoidalarni shakllantirayotgan obyektiv vosita bo'lmoqda.

O'zbekiston uchun ushbu sohani rivojlantirish chuqur tarixiy ildizlarga tayanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy Davlatlar Tashkiloti sammitida ta'kidlaganidek, o'lka-mizda yashab ijod qilgan ulug' bobolarimiz – Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek algoritim, matematika, astronomiya hamda fizika fanlari ravnaqiga beqiyos hissa qo'shib, hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun mustahkam asos yaratganlar. Mamlakatimiz ana shu bebaho merosga tayangan holda, sun'iy intellekt sohasida strategik hamkorlik tarmog'ini shakllantirishni muhim vazifalardan biri deb hisoblaydi.

Tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, sun'iy intellekt g'oyasi oddiy falsafiy qarashlardan tortib eng murakkab zamonaviy neyron tarmoqlarigacha bo'lgan uzoq va qiziqarli taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Inson fikrlash jarayonini taqlid qila oladigan mashinalar yaratish haqidagi dastlabki konseptual g'oyalarni qadimgi yunon faylasufi Aristotel asarlarida ham uchratish mumkin. Uning formal mantiq haqidagi ta'limoti keyinchalik algoritmlar nazariyasi uchun muhim poydevor vazifasini o'tadi.

XVII asrga kelib nemis olimi Gotfrid Vilgelm Leybnis sun'iy intellekt rivojiga xizmat qiluvchi algoritmik asoslarni yaratishga katta hissa qo'shdi. U universal hisoblash g'oyasini ilgari surib, bugungi kibernetika va kompyuter texnologiyalarining asosini tashkil etuvchi ikkilik sanoq tizimini ishlab chiqdi. XIX asrda esa Jorj Bul matematik mantiqni rivojlantirib, hisoblash jarayonlarini formallashtirdi. Shu bilan birga, Charlz Bebbidj tomonidan yaratilgan «analitik mashina» zamonaviy kompyuterlarning ilk prototipi sifatida tarixda muhim o'rin egalladi.

Sun'iy intellekt sohasidagi haqiqiy ilmiy burilish XX asr o'rtalarida yuz berdi. 1950-yilda ingliz matematigi Alan Turing «Hisoblash mashinalari va aql» nomli mashhur maqolasini e'lon qildi. Unda olim mashinalarning intellektual qobiliyatini baholash uchun keyinchalik «Turing testi» nomi bilan tanilgan usulni taklif etdi. Bu sun'iy intellekt nazariyasining ilmiy asoslarini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi.

Sun'iy intellektning fan sifatida rasman shakllanishi 1956-yilda AQSHning Dartmut kollejida bo'lib



Amerikalik olim Jon Makkarti va uning hamkasblari ilk bor «sun'iy intellekt» («artificial intelligence») atamasini ilmiy muomalaga kiritdilar.

Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

o'tgan ilmiy konferensiya bilan bog'liq. Mazkur anjumanda amerikalik olim Jon Makkarti va uning hamkasblari ilk bor «sun'iy intellekt» («artificial intelligence») atamasini ilmiy muomalaga kiritdilar. Shu tariqa, inson tafakkurini modellashtirishga qaratilgan yangi fan sohasiga asos solindi.

Sun'iy intellektni O'zbekistonda joriy etish – shunchaki zamonaviy tendensiyalarga ergashish emas, balki texnologik suverenitetni mustahkamlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va aholi hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan strategik yo'ldir. Shu ma'noda, yurtimizda sun'iy

Iqtisodiyot va moliya tarmoqlarida sun'iy intellekt algoritmlari bank tizimidagi firibgarlik operatsiyalarini tezkor aniqlash, mavjud xavflarni baholash hamda mijozlarning to'lov qobiliyatini tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda. Bu choralar moliyaviy xizmatlar xavfsizligi va tezkorligini ta'minlashga yordam beryapti.



intellektni rivojlantirish jarayonlari xalq farovonligini ta'minlovchi eng muhim sohalarni qamrab olmoqda.

Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalari har bir o'quvchining bilim darajasi va o'zlashtirish sur'atiga moslashgan individual o'qitish tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarni zamonaviy raqamli kasblarga tayyorlash maqsadida «Bir million sun'iy intellekt yetakchilari» loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Tibbiyot sohasida sun'iy intellekt diagnostika jarayonlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy neyron tarmoqlari rentgen va MRT tasvirlarini yuqori aniqlikda tahlil qilib, turli xavfli kasalliklarni, jumladan, o'smalarni qisqa vaqt ichida aniqlash imkonini bermoqda. Bu esa xastaliklarni erta

bosqichda fosh etish va davolash samaradorligini keskin oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot va moliya tarmoqlarida sun'iy intellekt algoritmlari bank tizimidagi firibgarlik operatsiyalarini tezkor aniqlash, mavjud xavflarni baholash hamda mijozlarning to'lov qobiliyatini tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda. Bu choralar moliyaviy xizmatlar xavfsizligi va tezkorligini ta'minlashga yordam beryapti.

Davlat boshqaruvida ham mazkur raqamli texnologiyalar izchil joriy etilmoqda. Jumladan, Face-ID asosidagi masofaviy identifikatsiya tizimlari hamda davlat xizmatlari portallaridagi chat-botlar fuqarolarga katta qulaylik yaratib, byurokratik to'siqlar va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilib, sohani tizimli



Erkinjon MARUPOV,
IIV Malaka oshirish instituti
Axborot texnologiyalari sikli
boshlig'i,
polkovnik, dotsent.

rivojlantirish choralari ko'rilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 14-oktabrdagi tegishli qarori bilan tasdiqlangan «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi» mamlakatda raqamli texnologiyalar taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiquvchi muhim hujjat bo'ldi.

Mazkur strategiya mamlakat oldiga bir qator ulkan maqsadlarni qo'ygan. Jumladan, 2030-yilga qadar sun'iy intellekt asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish, O'zbekistonning «Government AI Readiness Index» xalqaro reytingida dunyoning kuchli 50 ta davlati qatoridan joy olishini ta'minlash hamda davlat xizmatlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ulushini 10 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Quvonarlisi, yaqinda Ichki ishlar vazirligi davlat xizmatlarini ko'rsatishdagi ijobiy natijalari uchun eng namunalik vazirlik deb tan olindi. Bugungi kunda vazirlik tomonidan ko'rsatilayotgan 60 ga yaqin xizmat turining 95 foizi to'liq raqamli shaklda taqdim etilayotgani diqqatga sazovor. Vazirlik bunday yuqori e'tirofga loyiq topilishida tizimda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan har tomonlama unumli foydalanilayotgani ham muhim omil bo'ldi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi texnologiyalar insonga xizmat qiladigan, byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradigan va jamiyat farovonligini ta'minlaydigan zamonaviy ekotizimni shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellektni hayotga tatbiq etish, haqiqatan ham, davr talabi. Biroq bu jarayonda texnologiyalar faqatgina kuchli vosita ekanini, uning asl qiymati inson manfaatlarini yo'lida mas'uliyatli boshqaruv orqali namoyon bo'lishini unutmaslik muhimdir.



Qoraqalpoq tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Yo'l boshida

Voyaga yetmaganlar bilan tizimli ishlash yurt istiqbolini ta'minlashning eng muhim, ustuvor shartlaridan biridir. Ayniqsa, ijtimoiy-huquqiy yordam va alohida e'tiborga muhtoj o'smirlarni qo'llab-quvvatlash, ular hayotda to'g'ri yo'l topishiga ko'maklashish katta ahamiyatga molik masala sanaladi. Bu yo'nalishda Qashqadaryo viloyati IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi tomonidan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy-profilaktik tadbirlar kutilgan natijani bermoqda.

MEHR, INTIZOM KUCHI

Joriy yilning o'tgan davrida markazga har xil sabablarga ko'ra 300 nafardan ziyod voyaga yetmaganlar keltirildi. Ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, turli salbiy ta'sirlardan asrash hamda xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlarga erishish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga tatbiq qilindi. Xususan, Qarshi shahridagi diqqatga sazovor

joylar va ko'ngilochar maskanlarga ma'rifiy sayohatlar uyushtirildi.

O'smirlarning hunarmandchilik, texnik ijodkorlik, axborot texnologiyalari, tikuvchilik va oshpazlik kabi to'garaklarga jalb etilishi ularda mehnatsevarlik, mas'uliyat va intizom tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilyapti. Shu bilan birga, Markazimizda futbol, kurash, yengil atletika hamda shaxmat va shashka bo'yicha o'tkazilayotgan mashg'ulotlar voyaga yetmaganlarda jamoaviylik, iroda va g'alabaga intilish fazilatlarini toblayapti, bu ularning salbiy xatti-harakatlarga moyilligini kamaytirishga zamin yaratmoqda.

Xodimlarimizning to'g'ri tanlangan tarbiya usullari ko'plab yoshlar hayotini tubdan o'zgartirib yubormoq-

da. 2021-yilda markazga bir necha bor olib kelingan 12 yoshli Sh.X. oilasiga qaytarilgach ham, afsuski, xulq-atvorida ijobiy o'zgarish kuzatilmadi. Shundan so'ng bizning tavsiyamiz va sa'y-harakatlarimiz bilan u Sirdaryo viloyatidagi o'g'il bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus o'quv muassasasiga joylashtirildi. O'smir bu yerda qat'iy tartib asosida darsdan keyin qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashdi. Bilimini oshirib, fan bel-lashuvlarida g'olib chiqdi va yakunda Shahrizabz shahridagi «Temurbeklar maktabi»ga imtiyozli asosda qabul qilindi. U hozir ushbu nufuzli ta'lim muassasasida muvaffaqiyatli tahsil olmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkin-ki, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida olib borilayotgan bunday xayrli ishlar nafaqat adashgan yoshlar taqdirini sog'lom turmushga yo'naltiradi, balki jamiyatda osoyishtalik va sog'lom muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qilayotir. Shu bois, bu yo'nalishdagi ishlar ko'laminani yanada kengaytirish va samaradorligini oshirish yo'lidagi harakatlarimizni aslo to'xtatmaymiz.

Dilafro'z MIRZAYEVA,
podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.



«Qoradori—2026»

UZUMZORDAN UZILGAN «UZUM»

Respublikamiz bo'ylab giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish, ularning yetishtirilishi va tarqatilishining oldini olishga qaratilgan tezkor-profilaktik tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Bu borada an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Qoradori» keng qamrovli nazorat-reyd tadbirlari yuqori samara bermoqda.

Yaqinda Toshkent viloyati Piskent tumanida o'tkazilgan tezkor tadbirida xonadon sharoitida taqiqlangan giyohvandlik o'simliklarini parvarishlab kelayotgan shaxsning jinoiy faoliyatiga chek qo'yildi. «Birlik» mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan xonadonlardan birida o'rnatilgan tartibda ko'zdan kechirish ishlari olib borildi.

Tezkor tadbir davomida xonadon sohibi orqa hovlisidagi shiypon va uzumzorida inson sog'lig'i va hayoti uchun xavfli bo'lgan giyohvandlik o'simliklarini yetishtirib kelayotgani aniqlandi. Fuqa-

ro ushbu yashil maydonda 57 tup taqiqlangan o'simlikka alohida agrotexnik ishlov berib, parvarishlagan ekan.

Mazkur holat xolislar ishtirokida, belgilangan protsessual tartib-qoidalarga muvofiq hujjatlashtirildi, o'simliklar ashyoviy dalil sifatida olindi. Musodara qilingan o'simlik namunalarning turi va ularning tarkibida taqiqlangan moddalar bor-yo'qligini rasman tasdiqlash maqsadida sudga oid kimyoviy ekspertiza tayinlandi. Ekspertiza xulosasi esa, xonadondan olingan 57 tup o'simlik ko'knori ekanligini



ko'rsatdi. Shuningdek, o'simlik boshloqlari tarkibida opiy guruhiga kiruvchi, kuchli qaramlilikni va sog'liqqa qayta tiklanmas zarar yetkazuvchi faol giyohvandlik moddasi – morfin mavjudligi tasdiqlandi.

Holat yuzasidan Piskent tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi tomonidan jinoiyat ishi qo'zg'atildi. Ushbu voqea ogohlik va hushyorlik

tuyg'usini yanada oshirish lozimligini yaqqol ko'rsatib berdi. Ichki ishlar organlari xodimlarining o'z vaqtida ko'rgan tezkor chora-tadbirlari natijasida zahri qotilning qora bozorga chiqib ketishi hamda yuzlab insonlar, ayniqsa, yoshlar hayotiga tahdid solishining oldi olindi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, keng jamoatchilik va

huquq-tartibot organlarining faol hamkorligi orqali giyohvandlikka qarshi samarali kurashish mumkin. Zero, sog'lom kelajak va oilalarimiz osoyishtaligi o'z qo'limizda.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-
muxbir, katta serjant.

Toshkent viloyati.

Oila tinchligi – xizmat xotirjamligi



Minglab tasodiflar sinovidan o'tadigan er-xotin muhabbati kundalik eng oddiy hodisa bo'lishiga qaramasdan, eng go'zal mo'jizadir.
Fransua MORIAK

BAXT NING 17 LAHZASI

Turmush o'rtog'im Bunyod Shodmonov – ichki ishlar xodimi. U Sirdaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi PPX «Guliston» bekatida safdor xodim bo'lib ishlaydi.

Xizmatchilik u kishi yarim kechagacha ishda qolib ketadi. Biz uch nafar farzandimiz bilan kechki payt Bunyod akamni intiqlik bilan kutamiz. Boshida bunga ko'nikishim qiyin bo'lgan. Ba'zan «Ishingiz uydan ham muhimmi?» deb so'ragan, xafa bo'lgan paytlarim ham bo'lgan.

Bir kuni u meni ish joyiga olib bordi. Temir yo'l bekatidagi ichki ishlar xodimlarining xizmat xonasida ish jarayonini kuzatib o'tirdim. Turmush o'rtog'im bir lahza ham hushyorlikni yo'qotmasdan, har bir yo'lovchini diqqat bilan kuzatib, sumkalarida xavfli buyumlar bor-yo'qligini aniqlashga harakat qilardi. Bu menda taajjub uyg'otdi. Nega? Tinchlik zamoni bo'lsa?! Bu haqda so'raganimda, odamlar orasida giyohvandlik vositalari, qurol kabi buyumlarni olib o'tishga urinishlar bo'lib turishini aytdi. O'n yil davomida mana shunday tekshirishlar natijasida bir qancha o'g'irliklar fosh etilganini ham qo'shib qo'ydi.

Qalbimda g'urur uyg'otgan jihati – Bunyod akam kekxa, nogironligi bo'lgan yoki og'ir yuk bilan ketayotgan yo'lovchilarga bajonidil ko'maklashar, har bir insonga xushmuomala bo'lishga, ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilardi. Tushga yaqin olam-olam taassurot bilan uyga qaytdim. Turmush o'rtog'im meni taksiga o'tqizar ekan, bugun uyga

ertaroq qaytishini, yaxshi taom tayyorlab qo'yishni tayinladi.

Farzandlarimiz bilan kechqurun tansiq taom tayyorlab dadamizni kutib o'tirdik. U kishi esa yana kech keldilar. Kelganlarida farzandlarimizning hammasi uxlab qolgandi. Men o'sha kuni xizmat vazifalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lganim, ishlari qiyinligini bilib olganim uchun e'tiroz bildirishni bas qildim...

Odatda «Oila muhimmi yoki ish?» degan savolga har kim har xil javob beradi. Biri ikkinchisiga chambarchas bog'liq bo'lgan bu ikki maskanning har ikkalasida ham o'zining yuksak fazilatlarini, halol mehnati bilan qadr, izzat va hurmat topa olgan insongina chinakam baxtli bo'lishi mumkin. Bunga o'zimning oilam misolida yana bir bor amin bo'ldim. Farzandlarimning dadasi ishda qanchalik jiddiy bo'lmasin, uyda oddiy inson, mehribon ota, g'amxo'r turmush o'rtoqdir. Bo'sh vaqti bo'ldi deguncha farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Katta farzandimiz Muhammadjon Nurullayev 7 yoshda. U ingliz tiliga qiziqadi. Hamma o'g'il bolalar singari futbolni juda sevadi. Ota va o'g'il ba'zan uyimiz yaqinidagi kichik maydonda shug'ullanib turishadi.

Bunyod aka o'z ustida ishlashdan aslo charchamaydi. Ayni kunlarda Jamoat xavfsizligi universitetini bitirish arafasida.

Turmush o'rtog'imning odamlar tinch yashasin deb kurashishining o'zi menda katta g'urur uyg'otadi. Biz shu darajada baxtli hayot kechirmoqdamizki, yillar lahzalardek o'tib ketmoqda. Baxtli yillar – baxtli lahzalar! Bunday shukuhli hayotni barchaga tilagan bo'lardim.

Muattar SHODMONOVA


Guliston shahri.

Biror-bir kimsaga yaxshilik qilsang, shuni bilki, sening saxovatingdan u behad shod bo'lgani kabi, senga ham shunchalik zavq nasib etadi.

«QOBUSNOMA» DAN

QONUN VA INSONIYLIK UYG'UNLIGI

Tergov xonasida o'tirgan ayol tinmay yig'lar, qo'llari qaltirardi. Uning nigohida qo'rquv, alam va yillar davomida yig'ilib qolgan iztirob yaqqol aks etardi.



– Men bolalarimni ko'rishni istagandim, xolos.

Bu so'zlar podpolkovnik Yulduz Hamdamovaning qalbiga o'qdek qadaldi. Chunki uning qarshisida jinoyatchi emas, balki hayot zarbari ostida ezilgan, odam savdosi qurboni bo'lgan bir ayol o'tirardi. O'sha paytda lavhamiz qahramoni Transportdagi IIB Urganch temiryo'l bekatidagi tarmoq ichki ishlar bo'limi hamda Urganch aeroportidagi tarmoq ichki ishlar bo'linmasi tergov guruhining katta tergovchisi lavozimida faoliyat yuritardi. Navbatdagi jinoyat ishi avvaliga oddiydek ko'rindi. Ayblanuvchi ayol aldov va yolg'on va'dalar bilan Dubayga olib ketilgani, keyin esa odam savdosi qurboniga aylangani ma'lum bo'ldi. U yillar davomida tahqir, qo'rquv va iztirob ichida yashagan. Oxir-oqibatda esa farzandlari va Vatani sog'inchi uni barcha xavf-xatarni unutib, O'zbekistonga noqonuniy kirishga majbur qilgan.

– O'sha ayolning yig'isini hech qachon unutmayman. Tergovchi bo'lsam ham, ayolman. Bir ona sifatida uning dardini yurak-yurakdan his qildim, – deydi Yulduz Hamdamova.

Podpolkovnik Yulduz Hamdamova 2007–2011-yillarda IIV Akademiyasida tahsil oldi. Keyinchalik Transportdagi ichki ishlar organlarida surishtiruvchi, tergovchi, katta tergovchi kabi mas'uliyatli lavozimlarda xizmat qildi. 2019-yildan xotin-qizlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ijtimoiy himoya yo'nalishlarida faoliyat yuritdi. Bu davrda nafaqat huquqbuzarliklar, balki inson ruhiyati, ayollar dardi va oilaviy muammolar bilan ham yaqindan tanishdi. Bugun esa Xorazm viloyati IIB Migratsiya va personallashtirish boshqarmasi ma'lumotlarni yig'ish punktlari faoliyatini muvofiqlashtirish guruhida muhim topshiriqlar bo'yicha inspektor sifatida xizmat qilmoqda. Uning aytishicha, bu sohadagi eng ta'sirli holatlardan biri – yillar davomida fuqaroligi maqomi bo'lmagan insonlarga O'zbekiston fuqaroligi berilgan onlardir.

15–20 yildan buyon O'zbekistonda yashab kelayotgan, shu yerda oila qurgan, farzandlari maktabda tahsil olayotgan, ammo hanuzgacha biror davlat fuqaroligiga ega bo'lmagan insonlar... Ularga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berilganida, ayrim onalar qo'lga pasportini olgach, ko'z yoshlarini tiya olmagan paytlari bo'ladi.

– «Endi farzandim kelajagi uchun qo'rqmayman», – deb yig'lashadi ular. Shunday onlarda mehnatingiz zoye ketmayotganini his qilasiz, – deydi podpolkovnik Yulduz Hamdamova.

Uning xizmat yo'li inson taqdiriga befarq bo'lmagan, qonun bilan birga insoniylik va mehrni ham ulug'lagan ayolning hayot yo'lidir.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



Касбидан камол топганлар

Маҳмуджон Жўраевнинг болалиги Иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келганлиги боис у эрта улғайди, фронт ортидаги машаққатли меҳнат ва уруш даврининг етишмовчиликлари бўлажак посбоннинг иродасини тоблади, характерини чиниқтирди.

1953 йилда Наманган шаҳар 2-сонли милиция бўлинмасида оддий милиционер сифатида иш бошлаган Маҳмуджон соҳани мукамал эгаллаш мақсадида Тошкент олий милиция мактабига ўқишга кириб, 1956 йилда уни муваффақиятли тамомлади.

Дастлаб ёшлар билан ишлаш бўйича инспектор, сўнгра участка нозири вазифаларида фаолият юритиб, жамиятнинг турли қатламлари билан мулоқот қилиш, одамлар қалбига йўл топиш борасида тажриба тўплади.

Кейинчалик хизмат фаолиятини жиноят қидирув соҳасида давом эттирди. Қарийб ўн бир йил тезкор вакил ва катта тезкор вакил сифатида хизмат қилди.

Наманган шаҳар ИИБ бошлиғининг ўринбосари, 1-сонли милиция бўлинмаси бошлиғи ҳамда вилоят ички ишлар органлари жиноят қидирув соҳасида масъул лавозимларда сидқидилдан фаолият кўрсатди.

96 йилли

ПОДПОЛКОВНИК

Бугун Маҳмуджон Жўраев 96 ёшда. У Наманган шаҳрининг «Янги аср» маҳалласида фарзандлари, набира ва чеваралари ардоғида умр кечирмоқда. Сўхбат асносида отахон шукроналик билан шундай дейди:

– Шукр, юртимиз тинч, осмонимиз мусаффо. Биз орзу қилган саодатли кунлар шу эмасмиди? Ортада қолган умримда қийинчилик ва синовлар бўлди. Лекин барчасига сабр қилдик. Эл тинчлиги учун қилган камтарона хизматларим зое кетмаганидан мамнунман.



Истеъфодаги подполковник Маҳмуджон Жўраев кўп фарзандли, ибратли оила боши ҳам. Унинг 11 нафар фарзанди, 38 нафар набираси ва юздан ортиқ чевараси бор. Эътиборлиси, фарзандларидан уч нафари ота изидан борди.

Жумладан, ўғли Маъруфжон Жўраев Наманган шаҳар ички ишлар органларида профилактика инспектори бўлиб хизмат қилиб, капитан унвонида пенсияга чиққан. Орифжон Жўраев кўриқлаш хизматида инспектор бўлиб ишлаб, майор унвони

билан хизматини якунлаган. Оиланинг яна бир вакили – Муҳаммаджон Жўраев эса айни пайтда кўриқлаш хизматида кичик инспектор сифатида фаолият олиб бормоқда. Бу ота касбига бўлган чексиз ҳурмат, оилавий аънанинг давомийлиги ва Ватанга садоқат туйғуси авлоддан-авлодга ўтиб бораётганининг ёрқин намунаси.

Жаҳонгир ТЎХТАСИНОВ,
ўз мухбиримиз.

Наманган вилояти.

ШАРАФЛИ УМРНИНГ ОЛТМИШИНЧИ ДОВОНИ

... Ибрагим ҳарбий хизматни ички қўшинларда ўтади ва шу ерда унда ички ишлар органларида фаолият юритишга кучли иштиёқ пайдо бўлди. Аммо 1988 йилда отасининг тавсияси билан Тамбов педагогика институтига ўқишга кирди. Олий маълумотли бўлгач, ўзи туғилиб ўсган Кегейли туманидаги 27-мактабда рус тили ва адабиёти фанидан дарс бера бошлади.

– Ўша пайтда кўча-кўйда ички ишлар органи ходимларини кўриб қолсам, ҳарбий хизмат даврларим ёдимга тушиб, шу соҳага кириб ишлаш иштиёқи мени тинч қўймасди, – дея хотирлайди истеъфодаги подполковник Ибрагим Тўремуратов. – Ёз ойлари, меҳнат таътили пайтида Нукус шаҳар ИИБга мурожаат қилдим. Ички қўшинларга қарашли ҳарбий қисмда хизмат қилганим бўлим раҳбарларида қизиқиш уйғотди. Педагогик дипломи вояга етмаганлар билан ишлаш инспекцияси талабларига тўғри келгани боис, дарҳол ишга қабул қилиндим. Шу тариқа, соҳадаги фаолиятим бошланди ва тизимда 50 ёшга тўлганимга қадар хизмат қилдим.

Ибрагим оға фаолиятини 1995 йилда Нукус шаҳар ИИБ Вояга етмаганлар би-

лан ишлаш инспекцияси инспектори вазифасида бошлаб, тўрт йилдан сўнг инспекция бошлиғи этиб тайинланди. Кейинчалик турли соҳавий хизматларда фаолият кўрсатди. 2006 йилдан эътиборан Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Шахсий таркиб билан ишлаш хизматида масъулиятли лавозимларда ишлади. 2016 йилда эса хизмат бошлиғининг биринчи ўринбосари лавозимида пенсияга кузатилди.

Пенсияга чиққандан кейин ҳам у ижтимоий ҳаётдан узилмади. Аввалига Қорақалпоқ академик лицейида ўқитувчилик қилди, сўнгра бой тажрибаси инobatга олиниб, янги ташкил этилган ИИБ Нукус «Темурбеклар мактаби» ҳарбий-академик лицейи



директори лавозимида тайинланди. Янги ўқув даргоҳида таълим-тарбия жараёнини йўлга қўйишга бор куч-ғайратини сарфлади.

Лавҳамиз қаҳрамони ўз вақтида устозлари –

полковниклар Ўринбай Турдаков, Қуванишбай Тажимуратов ва Қуралбай Елмуратовларнинг «Одам қаерда, қандай лавозимда ишlamасин, энг аввало, ўз соҳаси пухта мукамал эгал-

лаши, ишини виждонан бажариши керак», деган ўғитларига амал қилиб кам бўлмади. Бугун унинг ўзи подполковниклар – Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ ММИ ва КБТХ бошлиғининг ёрдамчиси Максет Аширбеков ва Нукус «Темурбеклар мактаби» ҳарбий-академик лицейи директори Учқун Қадиров сингари шогирдларининг ютуқларидан фахрланади.

Ибрагим Тўремуратов турмуш ўртоғи Гулназхон опа билан тўрт ўғилни вояга етказди. Тўнғич ўғли Руслан – ИИБ Давлат фельдгерлик хизмати катта инспектори, капитан. Расулбек – Нукус шаҳридаги «Наврўз» маҳалласида ёшлар етакчиси. Илхамжон Фарғона давлат университетида, кенжа ўғил Казбек эса «Темурбеклар мактаби» ҳарбий-академик лицейида таҳсил олади.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.

Қорақалпоғистон Республикаси.

Tezkor Himoya – Samaradorlik Omili

Surxondaryo viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasi hamda uning joylardagi bo'linmalari tomonidan olib borilayotgan samarali ishlar aholi osoyishtaligini ta'minlash, xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda zamonaviy talablar asosida harbiylashtirilgan va qorovullik bo'linmalari orqali qo'riqlash, texnik qo'riqlash markazlari orqali esa nazorat hamda «tashvish» tugmalari yordamida tezkor himoya xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

Zamonaviy texnologiyalar-ning joriy etilishi natijasida xizmat ko'rsatish ko'lami tobora kengayib bormoqda. Xususan, joriy yilning dastlabki 4 oyi davomida jismoniy va texnik qo'riqlash yo'nalishi bo'yicha yana 1 464 ta obyekt hamda 2 693 ta aholi xonadoni ishonchli muhofazaga olindi.

Mahallalar va aholi gavjum hududlarda, xususan markaziy yo'llar, savdo maj-

li nazorat qilish, «tashvish» tugmalarini o'rnatish hamda tezkor harakatlanuvchi guruhlarning faoliyatini to'g'ri tash-

Hozirgi kunda viloyat bo'yicha qo'riqlash xizmati tomonidan 6 870 ta obyekt muhofaza qilinayotgan bo'lib, shundan 6 615 tasi texnik qo'riqlash markazlari orqali nazorat qilinmoqda. Shuningdek, 6 383 ta xonadonning qo'riqlovga olingani tizim aholi o'rtasida yuqori ishonch qozonayotganidan dalolat beradi.



mualari, ko'p qavatli uylar atrofi va boshqa jamoat joylariga o'rnatilayotgan zamonaviy kuzatuv vositalari vaziyatni doimiy ravishda monitoring qilish imkonini bermoqda.

Obyekt va xonadonlarni signalizatsiya tizimlari orqa-

kil etish borasida ham izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir chaqiriq va murojaatga tezkor munosabat bildirilishi aholi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, joriy yilning dastlabki 4 oyida ko'p qavatli uylar-

ning kirish yo'laklariga 116 ta «tashvish» tugmasi o'rnatildi. Ayniqsa, umumta'lim maktablari, savdo obyektlari, kafe va boshqa jamoat joylarida o'rnatilgan «tashvish» tugmalari fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita-

ga aylandi. Chunonchi bu kelib tushgan xabarlar asosida ko'plab jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Nuqtayi nazar

Hassos shoirimiz Erkin Vohidovning «So'z latofati» kitobini o'qigan kishi nafaqat so'zlarimiz jilolaridan hayratga tushadi, balki ularning paydo bo'lish, shakllanish jarayonidan ham zavq oladi. Shu bahona bo'ldi-yu ayrim so'zlari-
miz o'zagi, kelib chiqishi haqida qiziqdim. Va fikr-mulohazalarimni bayon etishga qaror qildim.

Aytaylik ilon so'zi. Bu so'z ayrim shevalarda «jilon» tarzida ishlatiladi. Ilon nima-yu, jilon nima? Ikkalasi ham bir narsa. Ammo... Ilondan ko'ra jilonda so'zning asl ma'no-

si yashiringaniga ko'p ham e'tibor qilmas ekanmiz. Negaki, jilon o'zagida «jil» fe'li bor. Bu «harakatlan» degan ma'noni anglatadi. Ya'ni jilonning asl ma'nosi joyidan jiluvchi, siljuvchi, harakatlanuvchi ma'nosiga ega.

Yoki jilg'a so'zini olaylik. Buralib oquvchi suv yo'li, jildirab oqadigan kichik ariqchani jilg'a deymiz. Ya'ni jilg'ada suv jiladi, harakatlanadi, oqadi.

«ILON»GA AYLANGAN «JILON»



Shunga yaqinroq yil so'zini olaylik. Bu so'zning ma'nosi nima? Nimaga asoslanib yil deyilgan? Yil so'zi qanday paydo bo'ldi ekan?

Shu dam xayolimga birdan yana jil keldi. Demak, yilning o'zagi ham jil-da. Jil, suril, qimirla, harakatlan. Yilning ichida vaqt jiladi, suriladi, o'tadi. Bundan jilning ham xuddi ilon kabi jilishida, harakatlanishida emasmikan? Ayrim shevalarda jil yil deyiladi.

Xo'sh, siz bunga nima deysiz?

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.

QO'SHSAHIFADA —

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Samarqand viloyati ichki ishlar organlari faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, bir vaqtlar asosan huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin chora ko'rishga yo'naltirilgan tizim bugun



FAOLIYATDA YANGICHA YONDASHUV

amalda ijobiy natijalar bermoqda

profilaktika, jamoatchilik bilan muloqot va raqamli boshqaruv tamoyillari asosida ishlamoqda. Bu o'zgarishlar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini xalq manfaatlariga yanada yaqinlashtirdi.

Mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish va aholi murojaatlariga tezkor javob berish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etildi. Xususan, «Xavfsiz mahalla» dasturining sinov tariqasida yo'lga qo'yilishi fuqarolarga profilaktika inspektorlariga masofadan murojaat qilish, jamoatchilikka ularning faoliyat samaradorligini baholash imkonini berdi.



Bugun fuqarolarga zarur xizmatlar hududlardagi huquq-tartibot maskanlari orqali mahallaning o'zida ko'rsatilmoqda. Bu maskanlar profilaktika inspektorlari, Milliy gvardiya va boshqa hamkor tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markazga aylandi hamda jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga qaratilgan yangi yondashuvni qaror toptirdi.

Bugun viloyat IIB fuqarolar uchun onlayn qabullar, virtual murojaatlar kabi turli interaktiv xizmatlarni taqdim etmoqda. Bu elektron platformalar aholi bilan

davlat organlari o'rtasidagi masofani qisqartirib, «Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyilning hayotiy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Viloyatning shahar va tumanlarida muntazam sayyor qabullar, aholi bilan ochiq muloqotlar, uchrashuvlar o'tkazilayotgani, shuningdek, murojaatlarni tezkor ko'rib chiqish amaliyotining tatbiq etilishi natijasida ilgari oylab hal bo'lmagan masalalar qisqa muddatlarda ijobiy yechim topmoqda. O'z navbatida, bu sa'y-harakatlar fuqarolarda davlat idoralari nisbatan ishonchni kuchaytirmoqda.

Islohotlarning yana bir muhim jihati kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Zamonaviy xavf-xatarlar sharoitida ichki ishlar organi xodimi nafaqat qonunni biladigan mutaxassis, balki psixolog, tahlilchi va jamoatchilik bilan samarali muloqot qila oladigan shaxs bo'lishi lozim. Shu maqsadda xodimlar uchun muntazam malaka oshirish o'quvlari tashkil etilib, ularning kasbiy ko'nikmalari mustahkamlanmoqda.

Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularning

ma'naviy-ma'rifiy hayotdagi ishtirokini ta'minlash ham islohotlarning tarkibiy qismidir.

Joriy yilning 1-iyun holatiga ko'ra, 18 nafar betob xodimning davolanishi, 12 nafar xodimning yaqin qarindoshlari operatsiyasi hamda 58 nafar xodimga to'y va dafn marosimlarini o'tkazish uchun bir martalik moddiy yordam pullari ajratildi. Xodimlarning yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida 17 nafariga foizsiz qarz hamda 6 nafariga avtotransport sotib olishi uchun avtokredit berildi.

Bundan tashqari, 217 nafar xodimning 233 nafar farzandiga hamda xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo'lgan 2 nafar xodimning farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun imtiyozli tavsifnomalar taqdim etildi.

Ijtimoiy himoya bilan bir qatorda, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini boyitishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xodimlar ishtirokida o'tkazilayotgan kitobxonlik kechalari, tarixiy obidalarga sayohatlar va yoshlar bilan uchrashuvlar ularning vatanparvarlik tuyg'usini va kasbiy mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Zero, yuksak ma'naviyatga ega va xalq dardini his etadigan xodimgina jamiyat xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlashga munosib hissa qo'sha oladi.

Umid UTAYEV,
viloyat IIB boshlig'i
o'rinbosari,
podpolkovnik.

Mahalla tinch — yurt tinch

HAMJIHATLIK OBODLIKKA ESHIK OCHAR

Eshik oldida gurunglashib o'tirgan onaxonlar, shaxmat bahsiga kirishgan otaxonlar, beg'uborlik zavqi bilan yugurib yurgan kichkintoylar... Yurtimizdagi har bir mahallaning mana shunday o'ziga xos, betakror muhiti bor. Bu manzara diyorumizdagi tinch va osoyishta hayotning yorqin ko'zgidir.



Samarqand shahridagi «Navbog'chyon» mahallasi ham ana shunday fayzli maskanlardan biri. Nafaqat devorlar, balki qalblar ham bir-biriga payvasta bo'lgan ushbu hududdagi 854 ta xonadonda 1109 ta oila, ya'ni 4200 nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Bu yerda biror xonadonga tashvish tushsa, qo'shnilar yelkadosh bo'lishadi. Kimdir to'y boshlasa yoki farzand ko'rsa, hamma birdek quvonadi.

Asosiy drayveri tadbirkorlik hisoblangan «Navbog'chyon»da jamoatchilik ishlariga hamma mas'uliyat bilan yondashadi. Faollar boshchiligida olib borilayotgan obodonchilik ishlari, gulzorlar va hovlilar tozaligi, yo'llarning ravonligi — mahalladagi ahilikning amaldagi ifodasi, desak, mubolag'a emas.

— Mahallada hamjihatlik va mehr-oqibat ustuvor bo'lsa, salbiy holatlarga o'rin qolmaydi, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi A'zam Ostonaqulov. — Qo'shning tashvishiga sherik bo'lish, yordamga muhtojlarni qo'llab-quvvatlash va farzandlar tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashish hayotimiz farovonligining asosidir.

Hudud osoyishtaligini saqlashda mahalla profilaktika inspektori, kapitan Bobur Narziyev mahalla fuqarolar yig'ini mutasaddilari bilan birgalikda ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. U xonadonbay o'rganishlar o'tkazib, ijtimoiy-ma'naviy muhitni muntazam tahlil qilib boradi. Nizolarni barvaqt aniqlash, tarafnlarni murosaga keltirish orqali oilalar buzilishi va huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Bolaligim shu mahallada o'tdi, — deydi mehnat faxriysi Akram Abdurahimov. — Mahallamiz tinch, qo'shnilar ahil-inoq. Farzandlarimiz, nabiralimiz tug'ishgan og'a-inidek ulg'aymoqda. Ayniqsa, bayramlarda barchamiz bir dasturxon atrofida yig'ilamiz, kuy-qo'shiqlar yangrab, bolalarning quvnoq kulgisi mahallaga o'zgacha fayz bag'ishlaydi.

«Navbog'chyon» mahallasi misolida yaqqol ko'rinadiki, mahallada birlik va hamjihatlik bo'lsa, yurt tinch bo'ladi, el farovon yashaydi

SAMARQAND VILOYATI

Qo'shqanotlar

MAS'ULIYATI MUHABBATIGA TUTASH

Viloyat IIB JXX Probatsiya boshqarmasi katta inspektori, leytenant Feruzbek Fayzullayev hamda Payariq tumani IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant Gulandom Haqberdiyeva sharaflari xizmatni mas'uliyat, mehr, ishonch va sadoqat bilan asrab kelayotgan juftliklardandir.



Yoshlik orzulari, kelajakka bo'lgan qarashlari va maqsadlari mushtarak bo'lgan ikki yoshning muhabbat tarixi IIV Akademiyasida boshlangan. Ular o'quv dargohidagi ilk suhbatlardan bir-biriga dunyoqarashi, intilishlari va hayotga munosabati o'xshash ekanini anglashgan. Va bu jihatlar bugungi baxtli va ahil oila qo'rg'onining mustahkam poydevori bo'ldi.

– Mening hayotdagi bosh maqsadim – kasbiy va oilaviy hayotda muvozanatni saqlash, – deydi leytenant Gulandom Haqberdiyeva. – Men faqat kasbida muvaffaqiyat qo-

zongan xodim yoki faqat uy yumushlari bilan band beka bo'lishni istamayman. Niyatim – shu ikki olamni go'zal tarzda birlashtirish. Doimiy harakat insonni rivojlantiradi, to'xtab qolsangiz – o'sishdan to'xtaysiz. O'z ustida ishlagan insonning ma'naviyati yuksaladi. Zamon bilan hamnafas bo'lish uchun doim yangi metodikalarni, xorijiy tillarni o'rganishga intilaman.

Gulandomning hayotida «Ishda mas'uliyat, oilada muhabbat, hayotda harakat» degan shior yashash falsafasiga aylangan. Bulung'urdan Pastdarg'om tumaniga kelin bo'lib

tushgan lavhamiz qahramoni mashaqqatli xizmatdan tashqari, ro'zg'or yumushlariga ham sidqidildan ulgurishga harakat qiladi.

Har bir insonning kasb tanlashi tasodifan bo'lmaydi. Feruzbek va Gulandomning ushbu sohaga bo'lgan qiziqishi insonlarga yordam berish va doimiy rivojlanish istagidan boshlangan. Bugun ular nafaqat xizmatda, balki oilada ham bir-birini to'ldirib, qo'llab-quvvatlab yashamoqda. Ular oila mustahkamligining asosi o'zaro tushunish va yuksak ishonchda deb bilishadi.

– Bir soha xodimi bo'lganimiz sababli, xizmat va uy yumushlarini birdek mas'uliyat bilan olib borishga harakat qilamiz, – deydi leytenant Feruzbek Fayzullayev. – Biz uchun oila nafaqat xotirjamlik maskani, balki er-xotinni kasbiy va shaxsiy tomonlama o'stiradigan dargohdir. Biror masala yoki qiyinchilik tug'lsa, albatta, birgalikda muhokama qilamiz. Uyda ham, ishda ham o'zaro qo'llab-quvvatlash bizni yanada yaqinlashtiradi.

Qo'shqanotlar ichki ishlar tizimi xodimlari bo'lgani uchun bir-birining xizmat mashaqqatini juda yaxshi his etadi.

Ishdagi charchoq, mas'uliyat va vaqt qadrini anglash ularning munosabatlarida yanada mustahkam ishonch paydo qilgan. Doimiy diqqat-e'tibor, tezkor qaror qabul qilish, turli xarakterdagi insonlar bilan ishlash ba'zan ruhiy charchoqni ham keltirib chiqaradi. Ammo Feruzbek va Gulandom xizmatda hamkasb, hayotda bir-biriga suyanib bo'lgan haqiqiy qo'shqanotlardir. Aslida, baxt bir-birini tushunishdan, mashaqqatli kunlarda bir-birini avaylashdan, doimo yelkadosh bo'lishdan va hayot yo'lini birgalikda baham ko'rishdan boshlanadi.

Karantin xizmati

MAHSULOT SIFATI – SALOMATLIK KAFOLATI

Inson salomatligi, avvalo, uning iste'mol qilayotgan mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga bog'liq. Shu ma'noda, aholi o'rtasida iste'mol madaniyatini yuksaltirish, sifatli mahsulot tanlash ko'nikmasini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.



Samarqand tumanidagi «Maroqand dehqon bozori» hamda oziq-ovqat do'konlarida o'tkazilgan targ'ibot tadbirlari doirasida mutaxassislar tomonidan sotuvchilar va xaridorlarga oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash qoidalari, ularning yaroqlilik muddati va sanitariya talablariga amal qilish yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Bozor – xalqning kundalik hayoti qaynagan, turmush tarzi aks etadigan maskan. Bu yerda mahsulot sifatiga befarqlik nafaqat bir inson, balki butun jamiyat salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, mutaxassislar xaridorlarga mahsulotlarni tanlashda faqatgina uning tashqi ko'rinishiga emas, balki sifat ko'rsatkichlari, qadog'ining butligi va yorliq (etiketka) ma'lumotlariga e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlashdi.

Ayniqsa, yoz faslida tez buziladigan mahsulotlarning noto'g'ri saqla-

nishi turli kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Sotuvchilarning mahsulotlarni belgilangan haroratda saqlashi, sanitariya qoidalariga qat'iy rioya etishi shart va muhimdir. Bu esa xaridor ishonchini qozonish va bozor madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xususan, viloyat IIB JXX JTSB Karantin guruhi xodimlari va Veterinariya, sanitariya-epidemiologiya laboratoriyasi mutaxassislari hamkorligida o'tkazilgan reydlarda 25 kg go'sht, 19 kg sut mahsuloti, 18 kg yog', 22 kg salat va 90 dona tuxum iste'molga yaroqsiz deb topilib, utilitatsiya qilindi.

Bu kabi tadbirlarning ahamiyatli jihati aholida ongli iste'mol madaniyatini shakllantirishga qaratilganidir. Zero, sifatli mahsulot tanlay oladigan fuqaro o'z salomatligini asrash bilan birga, oilasi farovonligini ham muhofaza qiladi.

Xurshid DOSTONOV, safdor.

Suratli axborot



Samarqand – bugungi kunda xavfsiz turizm markaziga ham aylanib ulgurdi. Bu borada tunu kun xizmat qilayotgan ichki ishlar xodimlarining xizmati bois har bir sayyoh o'zini to'laqonli xavfsiz his qilmoqda.

Suratda: viloyat IIB XTTB JTSB katta inspektori katta leytenant Shahzod Jabborov sayyohlar xizmatiga hamisha tayyor.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Umida MAMADALIYEVA, Abu KENJAYEV (suratlar) tayyorladi.

Kasb madaniyati

XODIMNING QIYOFASI – TIZIMNING QIYOFASI

Ichki ishlar organlarining xizmat samaradorligi xodimlarning nafaqat qonunlarga rioya qilishi va o'z xizmat vazifalarini siddiqdildan bajarishiga, balki ularning yuksak kasbiy madaniyati, xulq-atvori, odobi, xushmuomalaligiga ham bevosita bog'liqdir.

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim xodimlarning fuqarolar bilan qo'pol munosabatda bo'lishi, noo'rin xatti-harakatlarga yo'l qo'yishi kabi salbiy holatlar uchrab turibdi. Bu xizmat vazifasini mas'uliyat bilan bajarayotgan ko'plab fidoyi xodimlarning sha'niga putur yetkazib, tizim obro'siga dog' tushirmoqda.

Shu bois xodimlarga jamoat tartibini saqlash va xizmat vazifalarini bajarish chog'ida aholi bilan xushmuomalada bo'lish, har bir fuqaroning hurmatini joyiga qo'yib, qadr-qimmatini ulug'lash zarurligi muntazam uqtirilmoqda. Kasbiy madaniyat qoidalariga qat'iy rioya etish talab etilmoqda.

Kasbiy madaniyat – bu har bir xodim fuqaroning ijtimoiy kelib chi-

qishi, iqtisodiy ahvoli, millati yoki diniy qarashlaridan qat'i nazar, unga bir xil, munosabatda bo'lishi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomalalik, kamtarlik va vazminlikni namoyon etgan holda ularning murojaatlarini o'z vaqtida, to'liq va xolisona ko'rib chiqishi, halollik, poklik va beg'arazlikni hech qachon yoddan ko'tarmasligi shart deganidir.

Xodimlar virtual makonda ham mas'uliyatni chuqur his qilgan holda harakat qilishlari, davlat organlari faoliyatiga nisbatan salbiy fikr yoki ishonchsizlik uyg'otuvchi, shuningdek, axloq normalariga zid bo'lgan materiallarni tarqatmasliklari shart.

Xalqimizda «Rang ko'r – hol so'r» degan naql bor. Shuning uchun xo-



dim, avvalo, tashqi ko'rinishiga e'tiborli bo'lishi, kiyinish madaniyatiga qat'iy rioya etishi kerak. Binobarin, toza va ozoda kiyim, ko'rkam harbiy libos ichki ishlar organlariga nisbatan nafaqat hurmat hissini uyg'otadi, balki o'sib kelayotgan yosh avlodga soha-ga nisbatan yuksak havas tuyg'usini ham shakllantiradi. Eng muhimi, har bir xodim qiyofasida tizimning timsoli aks etadi.

Kasbiy madaniyat faqat xizmat vaqti bilan cheklanib qolmaydi. Xizmatdan tashqari vaqtda ham

xodimlar jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga amal qilishi, ichki ishlar organlari obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilishi lozim. Zero, har bir xodimning shaxsiy namunasi jamoatchilik nazarida butun tizimning qiyofasini namoyon etadi.

Bekzod RISKIMOV,
IIV Yuridik ta'minlash
boshqarmasi bo'lim boshlig'i,
kapitan.

Bilasizmi?

O'QISHNI KO'CHIRISH TARTIBI O'ZGARTIRILDI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylarda o'quvchilarning o'qishini o'qish davrida boshqa joyga ko'chirish va o'qishdan chetlashtirish tartibiga o'zgartirishlar kiritildi.

Endilikda o'quvchilar bir semestr mobaynida mashg'ulotlarda uzrli sabablarsiz 72 soat va undan ko'p



qatnashmaganda o'qishdan chetlashtirilishi mumkin. Vaqtincha mehnatga layoqatsizligi, respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etganligi va ayrim holatlar bundan mustasno.

Shuningdek, o'quvchilarning o'qishi bir akademik litseydan boshqa akademik litseyga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamentining Ta'lim jarayonini tashkil etish boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 12-maydagi 239-son qarori.

Huquqiy targ'ibot

YARASHING – JAZOLANMAYSIZ

So'nggi yillarda jinoyat-huquq tizimida insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday muhim mexanizmlardan biri – yarashuv institutidir. Yarashuv institutining asosiy mazmuni shundan iboratki, ayrim turdagi jinoyatlar sodir etilganda, agar aybdor shaxs o'z aybini tan olsa, jabrlanuvchi bilan kelishuvga erishsa hamda yetkazilgan zararni qoplasa, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Amaliyotda yarashuv jarayoni bir nechta muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, jabrlanuvchi tomonidan tegishli ariza beriladi. Unda yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi uchun ishni tugatish haqida iltimosnoma beriladi. Bu yerda eng muhim jihat – yarashuv ixtiyoriy bo'lishi shart. Hech qanday bosim, majburlash yoki aldovga yo'l qo'yilmaydi. Shundan so'ng surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ish holatlarini o'rganib chiqib, ayblanuvchining roziligi asosida ishni sudga yuboradi. Sud esa o'z navbatida, barcha holatlarni ko'rib chiqib: aybdor shaxs aybini tan olganligini, zararni qoplaganligini, jabrlanuvchi bilan yarashuvga

erishilganligini va bu jarayonda hech qanday bosim bo'lmaganligini o'rganadi. Sud muhokamasi jarayonida tomonlar eshitiladi va barcha shartlar to'liq bajarilgan taqdirdagina ish tugatiladi. Bu yerda yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozim: yarashuv barcha turdagi jinoyatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Qonunchilikda aniq belgilab qo'yilgan holatlar mavjud bo'lib, **og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxslar uchun yarashuv tatbiq etilmaydi.**

Yarashuv institutining jamiyat uchun ahamiyati beqiyos. Birinchidan, u tarafklar o'rtasidagi nizoni kelishuv yo'li bilan hal qilish imkonini beradi. Natijada,



ayblanuvchiga jazo tayinlanmaydi. Ikkinchidan, jabrlanuvchi uchun ham bu mexanizm manfaatli, chunki u o'z zararini tez va samarali qoplatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur institut huquqiy madaniyatni oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi, muammolarni sudgacha hal qilishga intiladi. Bu esa jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yarashuv instituti – bu adolat va insoniylik uyg'unlashgan mexanizmdir. U nafaqat jinoyat ishlarini samarali hal etish, balki jamiyatda barqarorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shahboz MURTAZAYEV,
Huquqni muhofaza qilish
Akademiyasi talabasi.

Открывая сезон

В «НУРЛИ МАНЗИЛ» ВОВСЮ РЕЗВИТСЯ ДЕТВОРА

Дети неспроста с нетерпением ждут летних каникул. Возможность весело провести время в живописных уголках природы, поучаствовать в ярких развлекательных мероприятиях и насладиться красотой окружающего мира дарит юным сердцам море радости. Именно в такой атмосфере искреннего восторга проводят свои каникулы ребята, отдыхающие в загородном лагере «Нурли манзил», расположенном в Вобкентском районе.

– Как и всегда, в этом году мы планируем организовать четыре смены для полноценного отдыха детей, – рассказывает сезонный директор лагеря Алишер Бобоев. – В рамках первого потока всеми созданными удобствами уже пользуются более 60 ребят.

Программа мероприятий в лагере невероятно насыщенная. Для детей регулярно проводятся спортивные соревнования «Здоровый образ жизни – залог долголетия» и «Веселые эстафеты»,

интеллектуальные игры «Заковат» и викторины «Книга зовет в мир чудес». Большой интерес вызывают показы художественных и мультипликационных фильмов. Также организуются встречи поколений «Самоотверженность старших глазами детей», соревнования «Юный спасатель» и профилактические мероприятия под девизом «Мы против наркотиков!».

Каждую неделю строго по графику проходят турниры по фут-

болу, волейболу, баскетболу, шахматам и шашкам. Кроме того, яркие эмоции ребятам дарят артисты Областного театра кукол и районного отдела культуры.

Безопасность детей в лагере – в приоритете. Территория находится под круглосуточной охраной и оснащена системами видеонаблюдения.

– Ответственными сотрудниками районных ОВД и УЧС совместно с профильными ведомствами разработан четкий план по поддержанию общественного порядка, обеспечению связи, транспортного обслуживания и безопасности жизнедеятельности в чрезвычайных ситуациях, – отмечает инспектор-психолог по вопросам несовершеннолетних ОП СОБ ОВД Вобкентского района старший лейтенант Азамат Амонов. – В соответствии с планом, в лагере организовано дежурство инспекторов-психологов по вопросам несовершеннолетних.

Одним словом, в лагере «Нурли манзил» каникулы ребят проходят содержательно, весело и с пользой.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



Женщина в погонах

ЕЕ ОСОЗНАННЫЙ ВЫБОР

Подполковник Дильноза Нурмухамедова – ведущий специалист Организационно-аналитического отдела Службы охраны при ГУВД города Ташкента. Более двадцати лет ее жизнь неразрывно связана со службой в органах внутренних дел, которую она когда-то выбрала по зову сердца.

С детства Дильнозу Кучкаровну восхищали люди в форме. В них она видела не только дисциплину и ответственность, но и искреннюю преданность своей стране. Любовь к Родине, чувство долга и желание приносить пользу обществу воспитал в ней отец, ставший главным жизненным наставником. Именно поэтому после окончания Государственного института физической культуры она решила связать свою судьбу со службой в органах внутренних дел.

В 2005 году, успешно пройдя отбор, она приступила к службе. Начинала рядовым сотрудником канцелярии, затем была переведена в кадровое подразделение.

– Я всегда считала, что каждый человек должен приносить пользу своей стране. Для меня служба

стала возможностью внести свой вклад в обеспечение порядка и безопасности. Никогда не жалела о сделанном выборе, – говорит наша героиня.

Сегодня она занимает должность ведущего специалиста Организационно-аналитического отдела. Этот отдел по праву называют мозгом службы, поскольку именно здесь координируются важнейшие рабочие процессы. Такая работа требует высокой ответственности, внимательности и профессионализма.

Большую роль в ее профессиональном становлении сыграли наставники – начальник канцелярии



Службы охраны при ГУВД города Ташкента Гульнара Мустафулова и Аваз Турсунбаев. Сегодня и сама Дильноза Кучкаровна является наставником для молодых сотрудников, передавая им накопленные знания и опыт.

– Патриотизм проявляется не только в словах, но и в ежедневном добросовестном труде. Я стараюсь передавать молодым

ДИАЛОГ С ОБЩЕСТВОМ



Даниил КАРПОВ,
тренер по плаванию в Befit Pro,
спортсмен:

– **Каким должен быть современный страж порядка?**

– Профессионалом с отличной физической подготовкой, дисциплиной и глубоким знанием дела. Он должен обладать развитой эмпатией, уметь грамотно общаться, слышать людей и проявлять уважение к гражданам независимо от своей должности.

– **Соответствуют ли вашим ожиданиям современные сотрудники ОВД?**

– Да. Внедрение кодекса этики и фокус на уважении к людям приносят плоды. Органы внутренних дел – это мост между обществом и властью, и сегодня доверие к этому институту заметно растет.

– **Насколько сильно изменился образ правоохранительных органов за последние годы?**

– В системе ОВД видны колоссальные позитивные изменения. Страх перед правоохранителями сменился доверием и пониманием, что сотрудники открыты к диалогу и всегда готовы справедливо помочь. Особую гордость вызывают городские службы: их внешний вид и физическая подготовка теперь полностью соответствуют международным стандартам. Это результат огромной работы, за которую им большая благодарность.

сотрудникам понимание того, что служба – это прежде всего ответственность. Приятно видеть, как вчерашние новички становятся грамотными специалистами и достойно продолжают свой служебный путь, – отмечает она.

Говоря о своих достижениях, подполковник Нурмухамедова подчеркивает, что главным результатом считает доверие и уважение окружающих.

Надежной опорой для офицера остается семья, где близкие относятся к службе с пониманием и уважением, а поддержка мужа помогает сохранять внутреннюю устойчивость и уверенно выполнять свои обязанности.

Коллеги знают подполковника Нурмухамедову как серьезного, активного и целеустремленного сотрудника. Ее многолетний путь в органах внутренних дел является примером преданности своему делу, высокой ответственности и искренней любви к Отечеству.

Юлия МУСТАФАЕВА,
соб. корр.

The fruits of the reforms

A NEW APPROACH TO WORK

In the new phase of development for a New Uzbekistan, the improvement of the work of the internal affairs bodies has become one of the priority directions of state policy. In particular, the consistent reforms implemented in the system in recent years have been aimed at fundamentally changing its organisational structure and substance.



Analysis of the activities of the internal affairs bodies in Samarkand province shows that a system which was once primarily focused on taking action after a violation had occurred is now operating on the principles of prevention, public engagement, and digital management. These changes have brought the work of law enforcement agencies closer to the interests of the public.

Our proud youth

THE LIEUTENANT WHO IMPRESSED THE US COMMANDER

Lieutenant Nazli Paluaniyazova, true to her childhood dream, was admitted to the University of Public Safety in 2021 with the highest marks and graduated with honours.

She began her service career at the Kungirotdistrict DIA and currently works as a women's affairs inspector at the Uchtepa district DIA in Tashkent.

Nazli, who holds C1 and B2 certificates in Russian and Turkish respectively, familiarised herself with the work of the Republic of Turkey's Gendarmerie Academy as an interpreter for a National Guard delegation.

During her cadet years, Nazli's question in English during a meeting with general Jenson Boiles, commander of the Mississippi National Guard, USA, caught the general's attention, and she was presented with the «Shoulder to shoulder» commemorative medal.

Nazli Paluaniyazova, a winner of the Inter-



rior Minister's Cup in volleyball, continues to strive for professional and personal development to this day.

Harmony of hearts

TWO HALVES – A BALANCE OF RESPONSIBILITY AND LOVE

Senior inspector of the Probation department of the Samarkand region DIA, lieutenant Feruzbek Fayzullayev and lieutenant Gulandom Haqberdiyeva, senior inspector of the women's affairs division of the Payariq district DIA, are one of the couples serving with dedication in the system of internal affairs.

They met at the Ministry of internal affairs Academy, and from that very moment it became clear that they shared the same outlook and goals. Today, they are a close-knit family who harmoniously balance their professional and family lives.

Lieutenant Gulandom Haqberdiyeva stresses that she strives to balance her professional development with her family responsibilities. She constantly works on herself, having

made learning new skills and languages a way of life.

Lieutenant Feruzbek Fayzullayev, meanwhile, sees family and service as complementary processes. In their view, mutual understanding and support are the foundation of a strong family.

Today, Feruzbek Fayzullaev and Gulandom Haqberdiyeva



serve as an example, being colleagues at work and «wingmen» who support each other in life.

Sport and service

THE PATH TO THE WINNING PODIUM

Maqsud Veysalov was born in the Sirdarya district. He developed an interest in sport from a young age and began to practise freestyle wrestling. Through determination and hard work, he became the champion of Uzbekistan and Asia in freestyle wrestling and joined the national team.

He was recognised as a talented wrestler after winning all his matches at a major tournament held at the «Universal» sports complex in Tashkent.

At the Asian Championship in the UAE, he defeated representatives from Japan, China, and Arab states, beating a member of the Iranian national team in the final to claim the championship title.

Maqsud Veysalov is currently serving as a private in the



Sirdarya regional department of internal affairs. His responsibility and discipline at work are also highly rated by his superiors.

The young champion aims to achieve new successes in both sport and his service, and to defend our country's honour with dignity.

Tourist destinations

NATURE, HISTORY AND MODERNITY

The «Imom Ota» tourist village, located in the Khujaobod district of the Andijan region, attracts tourists with its picturesque nature, rich history, and unique mountain setting. Located in a region bordering Kyrgyzstan, this place has long been considered one of the main centres for pilgrimage and tourism.

The village's «Imom Ota» mausoleum, healing springs, and the «Orzu» cave in the mountainside are of great interest to visitors. After being granted «Tourism village» status in 2024, the area underwent extensive landscaping and modern infrastructure was created.



Today, alongside pilgrimage tourism, ecological and mountain tourism are also developing rapidly here. Cosy holiday resorts, guest houses, and modern services are further increasing the flow of tourists.

According to the head of the Patrol department

of the district DIA, lieutenant colonel Mamurjon Abduvokhidov, modern video surveillance systems and a constant patrol service have been introduced in the area to ensure public safety.

Today, the «Imom Ota» tourist village is recognised as one of the most attractive tourist destinations in the Andijan region, where nature, history, and modernity come together.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Mulohaza

MA'NAVIY «FILTR»IMIZ BUZILMASIN

MAHOBATLI VA MUHABBATLI

Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi keng ko'lamli rekonstruksiya ishlaridan so'ng yanada mahobatli, zamonaviy va milliy me'morchilik an'analarimizga uyg'un qiyofa kasb etdi. Ayni paytda majmuaning 45 gektarlik hududida Imom Buxoriy maqbarasi, 10 ming kishilik muhtasham masjid, 154 ustunli milliy ayvonlar, 14 ta moviy gumbaz, 75 metrlik 4 ta minora hamda 9 ta pavilyonidan iborat innovatsion muzey qad rostlab turibdi. Muzeyda buyuk allomaning hayoti, ilmiy merosi va islom olamidagi beqiyos o'rni keng yoritilgan.

Imom Buxoriy majmuasi – muhaddislar sultoni mangu qo'nim topgan tabarruk zamin. Bu tuproqqa qadam bosganda inson dunyoning shovqin-suronidan uzilib, o'z nafsini taftish qilishi, ajdodlar qoldirgan ulkan meros qarshisida mas'uliyatni his etishi lozim. Buxoriy hazratlari butun umrini ilmga, haqiqatga va yuksak axloqqa bag'ishlagan.

U zotning nomi bilan atalgan bu muazzam dargoh biz uchun nafaqat ziyorat maskani, shuning bilan birga, xalqimizning boy ma'naviy xazinasi, milliy o'zligimiz va islom sivilizatsiyasidagi munosib o'rnimizni, go'zal xulq, pokizalik va madaniyatimizni, ta'bir joiz bo'lsa, buyuk ajdodlarimizga muhabbatimizni namoyon etuvchi muhim madaniy obidadir.



ZIYORATGOH – KO'NGILOCHAR JOY EMAS

Yaqinda e'lon qilingan raqamlarga ko'ra, yangidan chiroy ochgan majmuaga dastlabki bir oyning o'zida bir milliondan ziyod ziyoratchi va mehmon tashrif buyurgan. Bu, shubhasiz, xalqimizning ma'naviyatga, tarixga va muqaddas qadamjollarga bo'lgan cheksiz intilishidan dalolat beradi. Biroq ayrim tashrif buyuruvchilarning bu maskan naqadar yuksak ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini unutib qo'yayotgani, hududdagi ozodalik, tartib-intizom va infratuzilmaga bilib-bilmay zarar yetkazayotgani dilni xira qiladi.

Ushbu og'riqli masalaga Madaniy meros agentligi ham alohida e'tibor qaratib, qutlug' maskanga keluvchi har bir insondan ziyorat madaniyatiga rioya qilishni so'radi. Majmuadagi binolar, naqshinkor ustunlar, ayvonlar va noyob muzey ekspozitsiyalariga

ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish barchamizning burchimizdir.

Afsuski, muammoning o'ylan-tiradigan jihati ham shunda. Oramizda ushbu ulug' majmuani ruhiy poklanish, tafakkur uyg'otadigan tabarruk maskan emas, balki shunchaki dam oladigan, suratga tushib vaqt o'tkazadigan oddiy ko'ngilochar sayilgoh sifatida ko'rayotganlar ham yo'q emas. Hudud ozodaligiga rioya qilmaslik, chiqindilarni duch kelgan joyga tashlab ketish, devorlar va ustunlarga zarar yetkazish nafaqat madaniyatsizlik, balki buyuk ajdodimiz qoldirgan ma'naviy merosga va muazzam dargohda mehnat qilayotgan yuzlab insonlarning mehnatiga



nisbatan ma'naviy «jinoyat»dir. Axir madaniyat va ma'naviyat maskanlari jamiyatning ichki «filtri» hisoblanadi. Shunday dargohlarda tartib buzilishi odamlarning ma'naviy ongidagi bo'shliqdan, mas'uliyatsizlikdan darak emasmi?

DUNYO TAJRIBASI: TARTIB VA EHTIROM

Aytish joizki, bu majmua har bir o'zbekistonlikning, har bir musulmonning o'z uyidek aziz va daxlsiz bo'lishi lozim. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, dunyo davlatlarida bunday obidalarini asrash uchun allaqachon qat'iy va tizimli choralar ko'rilgan. Yirik tarixiy, madaniy va ziyorat obyektlarida yuksak servis va qat'iy tartib o'rnatish maqsadida kirish yoki qo'shimcha xizmatlar ramziy pullik asosda tashkil etiladi. Bundan maqsad tijorat emas, balki o'sha maskanning muqaddasligini, tarixiy qiymatini saqlab qolish hamda tashrif buyuruvchilarda mas'uliyat hissini uyg'otishdir.

Dunyo miqyosida bunday oqilona yondashuvning ko'plab muvaffaqiyatli misollari mavjud. Masalan, Hindistondagi mashhur Toj Mahal obidasini olaylik. Bu durdona inshootni e'zozlash, uni ommaviy turizmning salbiy ta'siridan asrash maqsadida nafaqat kirish to'lovi joriy etilgan, balki hududda harakatlanishning juda qat'iy qoidalari belgilab qo'yilgan. Odamlar u yerga san'at va tarix qarshisida sukut saqlab, hayratlanish va ehtirom ko'rsatish uchun kirishadi.

MADANIY MEROS – O'ZLIGIMIZ KO'ZGUSI

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: Imom Buxoriy majmuasida davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoit va qulayliklarni qay darajada qadrlayapmiz? Biz ushbu muazzam obidani shunchaki oddiy ko'ngilochar maskanga aylanib qolishidan asrashimiz shart. Madaniy meros o'tmishdan qolgan oddiy devor yoki shunchaki istirohat maskani emas, bu – millatning o'zligi va uni dunyoga ko'rsatadigan ko'zgidir. Afsuski, bugun ma'naviy ko'zgidimizga boqib, ba'zan ommaviy madaniyat aksini ko'rayotgandekmiz. Ehtimol, hududda qat'iy tartibni saqlash, obidaning ma'naviy ulug'vorligini muhofaza qilish maqsadida tizimli choralarni kuchaytirish, no'rin xatti-harakatlar va madaniyatsizlik uchun jarimalar tizimini qat'iy-lashtirish vaqti kelgandir. Toki, majmuaga qadam qo'yayotgan har bir inson bu yer oddiy istirohat bog'i, sayr qiladigan xiyobon emas, balki dunyo tan olgan buyuk muhaddis zot abadiy qo'nim topgan, yuksak madaniyat, sukut, odob va tafakkur talab etiladigan ulug' ziyoratgoh ekanligini yurakdan his qilsin.

Biroq atrofqa teranroq nazar tashlasak, bu og'riq birgina majmua bilan cheklanmagan. Samarqand, Buxoro yoki Xivaning dunyo taniydigan asriy devorlariga «Falonchidan falonchiga salom» yoki «M+Z=Sevishganlar» deya bitilgan «nomalarni» ko'rganda asrlar bilan yuzlashgan tarixiy obidalar ayrimlarning ma'naviy savodsizligi, tarbiyasizligi qurboniga aylanmoqda, degan fikr o'tadi xayolimizdan. Eng achinarlisi, chet eldan kelgan sayyoh tarixiy koshinlarga hayrat ila boqqanida o'zimizning «zamondosh» o'sha devor tagiga pista po'chog'ini tupurib, saqichini yopishtirib ketsa! Xivadagi Ichan qal'aning asriy devorlari soyasida uyatni unutib, behayolarcha suratga tushayotganlar, Shahrisabzdagi Oqsaroy qoldiqlari ustiga chiqib, selfi tushaman deb tarixni oyoqosti qilayotganlarni ko'rganda ham yuragimiz uvishishi rost.

Ochiq va achchiq haqiqat shuki, bugun qadriga yetilmagan ne'mat ertaga butun bir avlod uchun boy berilgan va tiklab bo'lmas ma'naviy yo'qotishga aylanadi. Tarix faqat kitoblarda yashamaydi, u obidalarda, maqbaralarda nafas oladi. Agar biz bugun ularni himoya qila olmasak, ertaga farzandlarimizga quruq tuproq va xotiradan boshqa hech vaqo qolmaydi. Shu bois ma'naviy «filtr»imiz o'z vazifasini bajarishdan to'xtamasin. Ko'cha-ko'ya, muqaddas qadamjollarda madaniyatsizlik qilgan kimsalarga nisbatan jamiyatda murosasizlik va nafrat kayfiyati uyg'onishi shart. Toki, ular faqat qonuniy jazodan emas, xalqning, millatining nafratidan qo'rqsin. Zero, ajdodlar merosiga bo'lgan e'tibor – o'zligimizga bo'lgan ehtiromdir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Turizm manzillari

TABIAT, TARIX VA ZAMONAVIYLIK

MUJASSAM MASKAN

Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi «Imom ota» turizm qishlog'i o'zining so'lim tabiati, boy tarixi va tog' bag'ridagi betakror muhiti bilan alohida ajralib turadi. U yurtimizning eng chekka hududlaridan birida – Qirg'iziston bilan chegaradosh so'lim manzilda joylashgan.

Tog' tizmalari orasiga yashiringan qishloq musaffo havosi va maftunkor tabiati bilan har qanday mehmonni o'ziga rom etadi. Tabiiy muhit, tog' etaklaridagi zumrad yashillik va obihayot manbalari bu yerni nafaqat hordiq chiqarish, balki ruhiy tetiklanish va sog'lomlashtirish maskaniga aylantirgan.

Ta'kidlash joizki, qishloq azaldan nafaqat yurtimiz, balki qo'shni davlatlardan keluvchi sayyohlar uchun ham sevimli ziyorat va sayyohlik mas-

kani bo'lib kelgan. Bu yerga kelgan mehmonlar «Imom ota» maqbarasini ziyorat qilishgan, shifobaxsh buloq suvidan bahramand bo'lishgan. Shuningdek, tog' bag'ridagi sirli «Orzu» g'ori sayohat ishqibozlarida hamisha katta qiziqish uyg'otgan.

2024-yilda «Turizm qishlog'i» ma-



qomi berilgach, bu yerda keng ko'lamlı obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi va zamonaviy infratuzilma yaratildi. Hozirgi kunda esa qishloqning tabiiy jozibasi va tarixiy qimmatini saqlagan holda, sayyohlik salohiyatini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

– «Imom ota» har gal meni hayratga soladi, – deydi qirg'izistonlik sayyoh Damir Ruslanov. – Bu maskanda tabiat go'zalligi va ziyoratgoh fayzi o'zaro uyg'unlashgan. Tog'lar bag'ridagi dam olish maskanlari, sayyohlar uchun yaratilgan sharoitlar, mehmon uylari – barchasi yuqori darajada tashkil etilgan.

Turizm qishlog'ining rivojlaniishi barobarida, bu yerda xavfsizlik masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Sayyohlar oqimi yildan-yilga ko'payib borayotgani inobatga olingan holda, jamoat tartibini saqlash va hududni nazorat qilish ishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

– Mazkur hudud muhim turistik obyekt sifatida doimiy qo'riqlanadi, – deydi tu-

man IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Ma'murjon Abduvohidov. – Barcha obyektlar zamonaviy videokuzatuv tizimi orqali nazorat qilib boriladi. Xodimlarimiz sayyohlar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida doimiy ravishda patrul-kuzatuv ishlari olib borishmoqda.

Bugungi kunda «Imom ota» turizm qishlog'ida an'anaviy ziyorat bilan bir qatorda, ekologik va tog' turizmi ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Hududdagi mavjud zamonaviy infratuzilma, shinam dam olish mehmon uylari va ko'ngilochar obyektlar bu yerni yilning eng gavjum sayyohlik nuqtalaridan biriga aylantirgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkin, tabiat, tarix va zamonaviylik mujassam maskan o'zining maftunkor tabiati, zamonaviy imkoniyatlari bilan nafaqat Andijon viloyati, balki butun mamlakatimizning eng munosib sayohat manzillaridan biridir. Bu yerda tabiatning sofligi, tarixning sirli olami va bugungi kunning shinam dam olish sharoitlari uyg'unlashib, har bir mehmonga bir olam unutilmas taassurotlar tuhfa etadi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

Psixolog maslahati

SHULTE JADVALI – DIQQATNI TIKLASH IMKONI

Xizmat jarayonida ayrim paytlarda diqqat susayishi, fikr tarqoqligi, ko'z charchashi va ichki zo'riqish kuzatilishi mumkin. Bunday holatda qisqa, oddiy va samarali mashqlardan foydalanish foyda beradi. Shunday mashqlardan biri Shulte jadvalidir.

Jadvalga diqqat bilan qarang hamda 1 dan 25 gacha bo'lgan sonlarni ketma-ket tartibda toping. Mashqni iloji boricha tez, lekin xato qilmasdan bajarishga harakat qiling. Bajarish vaqti qayd etib boring. Mashqni 2 yoki 3 marta takrorlasangiz, diqqatingiz yanada yaxshiroq jamlanadi

JADVAL				
7	21	3	18	12
15	1	24	9	20
5	13	17	25	2
22	10	6	14	19
4	16	23	8	11

Shulte jadvali oddiy, ammo samarali psixologik mashq hisoblanadi. U xizmat jarayonidagi zo'riqishni kamaytirish, diqqatni mustahkamlash va fikrni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlardan qisqa tanaffus paytida foydalanish xodimning xotirjamligi, ish samaradorligi va ichki barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Naufal TURG'UNOV,
katta psixolog-poligrafolog,
kapitan.

Mulohaza

NEGATIVLAR HAQIDA NEGATIVLAR

Bugun ayrim ijtimoiy tarmoqlar go'yo g'iybat uyasiga aylangandek. Postlar bir taraf bo'lsa, izohlar alohida mavzu. Rahbarlar, xotin-qizlar, ayrim kasb egalari doimiy muhokamalar markazida. Hattoki yaqinda eshak mingan otaxonning yo'l qoidasiga amal qilgani aks etgan tasodifiy video ham negativchilar nishoniga aylandi.

«Haliyam eshak minib yuradigan ahvoldamizmi?», «Yo'lni o'rtasida nima bor o'ralashib?...»

Qarangki, ilm-fan «jabrdiyda» negativchilarni ham to'g'ri tushunish kerakligini ta'kidlaydi.

Ilmiy yondashuv

«Science Direct» nashriga ko'ra, negativ fikrlash inson ongining ajralmas qismi bo'lib, u tasodifiy holat emas, balki ilmiy jihatdan asoslangan psixologik jarayondir. Inson miyasi tabiatan salbiy axborotga tezroq va kuchliroq reaksiya bildirishga moyil.

Ya'ni, bir xil kuchga ega bo'lgan ijobiy va salbiy axborot orasida miya ko'proq salbiysini qabul qiladi. Chunki u xavfni oldindan sezish va o'zini himoya qilishga moslashgan. Evolyutsion nuqtayi nazardan bu inson-

ning tirik qolishiga xizmat qilgan bo'lsa-da, zamonaviy hayotda bu ko'pincha ortiqcha xavotir va stressga olib keladi.

Negativ fikrlashga moyillikning asosiy sabablaridan biri – inson yashaydigan muhit. Ya'ni doimiy bosim, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy taqqoslash, ax-

borot oqimining salbiyligi. Bu omillar inson fikrini sekin-asta pessimistik ruhga burishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy yangiliklar ko'pligi inson ongiga bevosita ta'sir qiladi. Bu holatda inson fikrlash tarzi avtomatik ravishda «eng yomon ssenariy»ni tanlay boshlaydi.



Negativ fikrlashga moyillikning asosiy sabablaridan biri – inson yashaydigan muhit.

muhim. Har bir salbiy fikrni haqiqat deb qabul qilish shart emas.

Axborot gigiyenasi: inson qanday axborotni qabul qilayotganiga e'tibor bermasa, negativ fikrlar yanada kuchayishi mumkin. Salbiy kontentni cheklash, foydali va ijobiy ma'lumotlarni ko'proq kuzatish tavsiya etiladi.

Jismoniy faollik: oddiy yurish yoki yengil mashqlar ham insonning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Negativ fikrlashni yo'qotish emas, aksincha, tushunish va boshqarish muhim. Negativ fikr – bu signal, u insonga qaysi sohada e'tibor va yechim kerakligini ko'rsatadi. Agar inson bu signalni to'g'ri talqin qila olsa, u holda negativ fikrlar ham shaxsiy rivojlanish va o'sish uchun xizmat qiladi. Shunaqa, negativlar ham ijobiy bo'la oladi, agar ular «tinglansa».

Agar negativ fikrlash so'z yoki harakatga aylansa, huquqiy javobgarlik masalasi yuzaga keladi. Masalan, haqorat, tuhmat, yolg'on ma'lumot tarqatish yoki adovat qo'zg'atish holatlari O'zbekiston qonunchiligida javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ahvol bu darajaga borib yetmasligi uchun salbiy fikrlashni boshqarish mumkin va buning uchun bir qator samarali psixologik usullar mavjud:

Fikrni anglash: inson o'z ongida paydo bo'layotgan fikrlarni kuzatishni o'rganishi kerak. Bu usul fikrlarni avtomatik emas, balki ongli ravishda qabul qilishga yordam beradi.

Shubha ostiga olish: keyingi bosqichda esa negativ fikrni shubha ostiga olish

Muqaddas SAPAROVA, o'z muxbirimiz. Jizzax viloyati.



KO'RINMAS vaqt o'g'risi

«Instagram ijtimoiy tarmog'i. U oddiygina rasm va videolar joylanadigan ilova bo'lib ko'rinsa-da, aslida inson ongini band qilib, vaqtini sezdirmasdan o'g'rilab oladigan murakkab mexanizmga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, yoshlar orasida bu tarmoq kundalik hayotning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Ko'pchilik «atigi besh daqiqaga kiraman» deydi-yu, biroq oradan yarim soat, ba'zan esa bir soat o'tib ketganini ham sezmay qoladi. Buning sababi juda oddiy: ilova to'xtovsiz oqim asosida ishlaydi. Postlar tugamaydi, «stories»lar ketma-ket chiqaveradi, «reels»lar esa insonni o'ziga tobe qilib qo'yadi.

Inson miyasi yangilikni tez qabul qiladi. «Instagram» esa rang-barang yangiliklar manbai. Qancha ko'p «reels» ko'rilsa, shuncha ko'p vaqt yo'qotiladi. Aslida u videolarning aksariyati hech qanday manfaat bermasligini bilamiz, lekin miya buni qabul qilishni istamaydi. Chunki «reels» inson

Ammo qisqa videolar, tezkor kontent va yorqin tasvirlarga o'rganib qolgan ong chuqur o'ylashga qiyinaladi.

«Instagram» nafaqat vaqt, balki diqqatni ham o'g'iraydi. Kitob o'qish, dars qilish yoki bir mavzu ustida chuqur fikr yuritish uchun barqaror diqqat kerak. Ammo qisqa videolar, tezkor kontent va yorqin

tasvirlarga o'rganib qolgan ong chuqur o'ylashga qiyinaladi. Bu esa bilim olish jarayonini sekinlashtiradi, fikrlashni yuzakilashtiradi, befarqlik va asabiylikni kuchaytiradi.

Yana bir muhim jihati, u yerda ko'rsatilayotgan chiroyli suratlar, eng go'zal lahzalar, kutilmagan sovg'alar aslida haqiqiy emas. Afsuski, tomoshabin o'z hayotini shu sun'iy mukammallik bilan solishtira boshlaydi. Natijada o'z hayotidan norozi bo'lib, hatto tushkunlikka tushishi mumkin. Eng yomoni, ijtimoiy tarmoqlardagi soxta

«baxt» turlari ayrim onalarda kelishmovchiliklar ham yuzaga kelmoqda.

Albatta, «Instagram»ning bilim beruvchi sahifalari, motivatsion kontentlar, yangiliklar va ijodiy imkoniyatlari ham bor. U orqali daromad topish, bilim olish va tajriba ulashish ham mumkin. Masalan, fudbloggerlar turli taomlar tayyorlashni o'rgatsa, bukbloggerlar dunyoga mashhur kitoblar haqida ma'lumot beradi. Reklama orqali esa biznes va mijoz o'rtasida samarali aloqa yo'lga qo'yiladi. Hamma gap kim undan qanday maqsadda foydalanishida deb o'ylayman. Masalan, telefonga taymer o'rnatish yaxshi yechim bo'lishi mumkin. Agar biror ilovaga belgilangan vaqtdan ortiq sarf qilin-

Kuniga besh-olti soatni «Instagram»ga sarflash – umrni ekran ortidagi sun'iy hayotga almashtirish bilan barobar.

sa, telefon bu haqda ogohlantiradi. Kuniga besh-olti soatni «Instagram»ga sarflash – umrni ekran ortidagi sun'iy hayotga almashtirish bilan barobar.

Afsuski, biz ko'pincha pulni tejash haqida o'ylaymiz, ammo bizga omonat berilgan vaqt asrash haqida yetarlicha o'ylamaymiz. Vaqt esa bir kuni albatta tugaydi. Uni nimaga sarflash har bir insonning o'z qo'lidagi. Qabul qilingan har bir qaror esa insonni yo baxtli, yoki pushaymon hayot sari yetaklaydi...

Farangiz QURBONOVA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti talabasi.



Ehtiyot bo'ling: firibgar!

2000 DOLLARLIK NAYRANG



Arzubay Qulimbetov (ism-shariflar o'zgartirildi) Qozog'iston da mehnat qilib yurgan kezlari notanish uch nafar hamyurtining fuqarolik pasportini topib oldi. Dastlab hujjatlarni egalariga qaytarish niyatida tanishlaridan surishtirdi. Lekin ulardan hech qanday darak bo'lmagach, pasportlarni shunchaki yonida olib yuraverdi.

Bir kun A.Qulimbetov tanishi Purxan Saribayevdan Chimkent shahridagi qurilish obyektlarining biriga ishchilar zarurligini eshitib qoldi. Ketish istagi kuchli bo'lsa-da, mavjud taqiq unga chegaradan o'tishda to'sqinlik qilardi. Shunda u firibgarlik yo'li bilan pul ishlab olish rejasini tuzdi.

U Purxanga uchrashib, o'zi va yana uch nafar sherigi Chimkentga borishga tayyorligini bildirdi. Xizmat haqidan avans hamda yo'lkira xarajatlari uchun 2000 AQSH dollari zarurligini, bu mablag'ni keyinchalik oylik maoshi hisobidan qaytarishini aytdi. Bir paytlar topib olgan uchta pasport-

ni ko'rsatib, go'yo hamrohlar shay ekaniga tanishini ishontirdi. Shundan so'ng P.Saribayev unga so'ragan pulini berdi.

Arzubay pulni qo'lga kiritgach, va'da qilingan manzilga emas, balki Toshkent shahriga yo'l oldi va u yerdagi qurilishlarning biriga ishga joylashdi. Keyinchalik Chimkentga yetib borgan va ishchilarni kuta-kuta charchagan P.Saribayev aldanganini tushunib yetdi. Bu paytda Arzubay telefon raqamini ham almashtirib, g'oyib bo'lgandi.

Jabrlanuvchi holat yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Ko'rilgan choralar natijasida A.Qulimbetov Toshkentdagi ish joyidan

topilib, sodir etgan qonunbuzarligi uchun jinoyat ishi qo'zg'atildi. Jinoyat ishlari bo'yicha sud mazkur ishni atroflicha ko'rib chiqib, firibgarga nisbatan tegishli jazo chorasini tayinladi.

Bu voqea nafaqat bir firibgarning qilmishi oqibati, balki o'z hujjatini yo'qotib, bunga beparvo bo'lgan uch nafar fuqaro uchun ham jiddiy ogohlantirishdir. Zero, sizning loqaydligingiz tufayli yo'qolgan rasmiy hujjat kimlarningdir qo'lida jinoyat sodir etish quroliga aylanishi mumkin.

Nurmuxammed UTEMURATOV,
mayor.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Biroz vaqt o'tib, A.Qulimbetov migratsiya qonunchiligini buzgani uchun Qozog'istondan deportatsiya qilinadi. Uyiga qaytib kelgani-

dan so'ng ham u o'sha topib olgan hujjatlarni egalariga qaytarish yoki ichki ishlar bo'limiga topshirish haqida o'ylab ham ko'rmadi.

Tergov amaliyotidan

QARZNI UZAMAN DEB...

Karimjon (ism-shariflar o'zgartirildi) avtomobillarga xizmat ko'rsatish ustaxonasiga ishga joylashgach, ota-onasining g'idi-bididan qulog'i sal tinchidi. Ammo tanish-bilishlaridan olgan qarzini o'ylasa, uyqusi qochardi. Ishda ham xayoli joyida bo'lmas, telefoni jiringlasa hadiksirab, darrov yozuviga qarardi.

Mana, hozir ham uyali telefoni jiringladi. Qalin o'rtog'i Mirsobir ekan. Undan qarzi ozroq, ya'ni 356 ming so'm bo'lgani uchun ikkilanib gaplashdi.

Mirsobir o'z qarzini so'ramadi, biroq Istamning pullarini bir amalab qaytarmasa bo'lmasligini aytib, undan qo'rqish kerakligini, qamalib chiqqanini ham pisanda qildi.

Karimjon o'zi yollagan mashinaga do'stini ham mindirib, Istamning huzuriga borishdi. Istam do'sti Javlon bilan ularni qarshi olarkan, darrov maqsadga ko'chdi:

– 5 million olganingga ham olti oy bo'lyapti. Bugun-erta deb... tag'in telefon qilsam ko'tarmaysan.

– O'rtog, qarzimni beraman. Hozir yonimda pulim yo'q, – dedi Karimjon aybdorona boshini xam qilib.

– Qachon berasan? Topib ber, kerak bo'lsa, o'g'irlik qil? – Istam avvaliga do'qladi, so'ng jahlidan tushib yumshadi. – Ustasan, «Damas»ni ochib ko'rsang, yukxonalarida pul qo'yishadi. Shuni ham o'rgatishim kerakmi?



– Bir o'zim eplolmayman-da, menga sherik kerak, – dedi Karimjon poyloqchilikni nazarda tutib.

– Mana, biz sherik. Poyloqchilik qilamiz, pulni esa to'rtga taqsimlaymiz, seniki menga qoladi. To qarzingni uzguncha, – deb Istam

masalaga uzil-kesil nuqta qo'ydi.

Noiloj qolgan Karimjon bu «taklif»ga rozi bo'la qoldi. Boshqa iloji ham yo'q edi.

– Narigi ko'chada bir biznesmen turadi. «Damas»ini ko'chada qoldiradi. Bir-ikki kuzatgan edim, pulini

olib tushmadi. Bizga o'lja bo'lishini istagan, – dedi Istam iljayib.

Karimjon avtomashinaning yukxonasini ochishga qiynalmadi. Mashinada qoldirilgan hamyon ichida hujjatlar bilan birga plastik karta va naqd 11 million 500 ming so'm pul bor ekan. Hamyonni Istam qo'yniga soldi-da: «Biron joyga qo'namiz, ham ziyofat, ham o'ljani taqsimlaymiz», – dedi. Qolganlar ma'qullashdi...

O'g'irlik mol hech qachon birovga buyurmagan. Osoyishtalik posbonlari tomonidan «qahramon»larimizning qilmishlari «issiq izida» fosh etildi. Buxoro shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, katta leytenant Javohir Ro'zimurodov ushbu jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini olib bordi. Tergov jarayonida jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zararining 10 million 867 ming so'mi aybdorlar tomonidan qoplandi.

Ayni paytda aybdorlarga nisbatan ayblov xulosasi tugallandi va sudga oshirildi. Odil sud esa ularning qilmishiga yarasha tegishli jazo tayinlaydi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Xalqaro tajriba

«E-Polis»

Raqamli transformatsiya bugungi kunda jahon miqyosidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylan- di. Smart-texnologiyalarni joriy etish nafaqat ish jarayonlarini yengillashtirmoqda, balki huquq-tartibot organlari bilan jamiyat o'rtasidagi muloqotning yangi shaklini ham yaratmoqda. Bugun Ozarbayjon- ning politsiya tizimida raqamli muhitni shakllantirish tajribasi haqida so'z yuritamiz.



MODEL ASOSIDA

Ozarbayjonda elektron xizmatlar tizimining joriy etilishi huquq-tartibot organlari faoliyatini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Bu tizim markazida «E-Polis» mobil ilovasi bo'lib, u «servis modeli»ning muhim elementi sanaladi.

Fuqarolar davlat ular- ning shaxsiy vaqtini qadrlab, navbatlar va ortiqcha qog'ozbozlikdan forig' qilayotganining va shu kabi ijobiy o'zgarishlarning gu- vohi bo'lishmoqda. Stan- dard hujjatlarni olish, ariza topshirish yoki organlarga xabar berish uchun bugun- ichki ishlar organlari bo'lin-

malariga shaxsan borish talab etilmaydi. Aksariyat masalalarni smartfon orqali bir necha harakat bilan hal qilish mumkin.

«E-Polis» davlat xizmat- larini modernizatsiya qilish hamda asosiy masalalar bo'yicha politsiya va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro alo- qalarni raqamli formatga o'tkazish uchun ishlab chiqil- gan mobil ilovadir. U ASAN Login portaliga integratsiya qilingan, bu esa yagona autentifikatsiya tizimidan foydalanish imkonini beradi.

Ilovaning funksiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

turli hujjatlar (jumladan, sudlanganlik yoki sudlan-

XIZMATDA

maganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma), majburiy avto- mobil sug'urtasi va shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlarni tekshirish uchun elektron arizalarni rasmiylashtirish;

Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalar mavjudligini va to'lovlarini tekshirish, avtomobilning taqiqda yoki qidiruvda ekani- ni tekshirish, YTH borasida ma'lumot olish;

mamlakatdan chiqishga taqiq mavjudligini (jumladan, qarzdorlik munosabati bilan) tekshirish va boshqalar.

Shuningdek, «Virtual 102» funksiyasi ko'zda tutil- gan bo'lib, u shikoyat yoki so'rovlarni politsiyaga video, audioyozuv yoki matnli xabar orqali yuborish imkonini be- radi. Bundan tashqari, ilova- ga va Ozarbayjon IIV saytiga integratsiya qilingan hamda sun'iy intellektga asoslangan chat-bot arizalarni topshirish qoidalari, zarur hujjatlar ro'yxati kabi eng ko'p ber- iladigan savollarga javob topishga yordam beradi.

RESURLARNI MAQBULLASHTIRISH

Ushbu ilova davlat tuzilma- sida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va huquq-tar-



TEXNOLOGIYA VA HAMKORLIK SAMARASI

ASAN Login bilan integrat- siya va politsiyaning «ASAN Xidmat» davlat xizmatlari markazlari bilan yaqin ham- korligi muhim tarkibiy qism- lardan biri bo'ldi. Bu «ser- visga yo'naltirilgan politsiya» falsafasini mustahkamlash imkonini berdi.

Ozarbayjon media ma- konini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, aholi tex- nologik o'zgarishlarni faol qo'llab-quvvatlaydi. Jamiyat uchun raqamlashtirish nafa- qat yangi kompyuterlar, balki o'zaro hamkorlikning tamo- man yangi falsafasi. Biroq zamonaviy texnologiyalar shunchaki vositadir. Odamlar ko'chada xavfsizlikni baholar ekan, «raqamli fasad» ortida har doim huquq-tartibot tizimining navbatchilik qism- lari va tezkor xodimlardan tortib patrul xizmatlarigacha bo'lgan barcha bo'g'inlari- ning muvofiqlashgan faoliya- ti turganini yaxshi anglaydi.

Bunyod DAVRONOV,
mayor.
Radik TUMPAROV,
o'z muxbirimiz.

Nuqtayi nazar

Ba'zan jamoat transportida tik turgan qariyalar, qo'lida yosh bolasi bilan chayqalib ketayotgan onalar- ga ko'zim tushganda bu achchiq haqiqatga yana bir bor amin bo'la- man. Chunki ularning qarshisidagi o'rindiqlarda bu holatni ko'rmaslikka olib, virtual olamga sho'ng'igan, qu- loqchin taqqan yoki ko'zlarini yumib, o'zini uxlaganga solib ketayotgan yoshlar bo'ladi. Ehtimol, ular bosh ko'tarishsa, mudrab yotgan vijdon- lari uyg'onib ketishidan qo'rqishar?..

Yaqinda guvohi bo'lganim bir vo- qea kishini mushohadaga chorlaydi: metroda birdan tormoz berilgani uchun o'rta yoshli ayol muvozanatini yo'qotib, xaltasidagi nonlari vagon poliga sochilib ketdi. Butun vagon esa jim. Hech kim joyidan qimirla- madi, go'yo hech narsa bo'lmagan- dek. Faqatgina bir bolakay ayolning nonlarini terib berdi. O'sha paytda ayolning «Otangga rahmat, bolam!» degan minnatdorlik so'zlari vagon ichidagi sovuq jimlikni parchalab yubordi. Ba'zan birgina yosh bola- ning go'zal odobi o'nlab kattalarning

O'RINDIQQA SIG'MAGAN TARBIYA

Bugun urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida shaharlarimiz qiyofasi tubdan o'zgarimoqda. Ko'chalar kengayib, metro va avtobuslar zamonaviylashmoqda. Odamlarning qo'lida so'nggi rusumdagi qimmatbaho telefonlar, har xil gadjetlar... Afsuski, ana shu yuksalish va taraqqiyot shiddati ichida asta-sekin yo'qolib, tanqisligi sezilayotgan bir ne'mat bor. Bu – in- soniylik, mehr-oqibat va kattalarga bo'lgan hurmat-eh-tirom.

uyatli sukutidan ancha baland va ustun turar ekan.

Afsuski, bugun ayrim yoshlar «zamonaviylik» tushunchasi- ni odobsizlik va beandishalik bilan adashtirib qo'yimoqda. Kattalarga joy berishni «eskilik sarqiti» deb hisoblaydiganlar ham bor. Holbuki, avvallari ota-onalar farzandiga ko'chaga chiqayotganda: «Kattani hur- mat qil, avval salom ber, yo'l ber, joy ber», deb uqtirishardi. Bugun esa ba'zi oilalarda bo- lani xulq-atvori emas, balki uning qo'lidagi gadjetning narxi muhimroq bo'lib qoldi. Natijada virtual dunyoga g'arq bo'lgan, mehr-oqibatdan yiroq, bee'ti- bor avlod shakllanmoqda.

Bugun keksalarni hurmat qil- mayotgan yoshlar ertaga o'zlari ham qarishini unutib qo'yishyapti.



Hayot hech kimni kuchli va navqiron holda qoldirmaydi. Bir kun kelib ular- ning ham qo'llari titraydi, qadamlari sekinlashadi, jamoat transportida tik turishga madorlari yetmay qoladi. Shundagina ular vaqtida keksalarga ko'rsatilgan beparvolik va hurmat- sizlik naqadar og'ir ma'naviy qasos bo'lib qaytishini anglab yetadilar.

Qat'iy xulosa shuki, telefonimizdan bosh ko'tarib atrofga boqaylik, kek- salarning og'ir nafasini tinglaylik, onalarning qo'lidagi yukiga yelka tutaylik. Eng muhimi, milliy o'zligimiz bo'lgan insoniylik qiyofamizni yo'qot- maylik.

Rushana ABDULLAYEVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi.

G'OLIBLIK SHOHSUPASI SARI

Maqsudni mashg'ulotlar zalidan topdik. Xotirjam, og'ir-vazmin yigitligi bir ko'rishdanoq ma'lum bo'ldi. Erkin kurash bo'yicha O'zbekiston va Osiyo chempioni, Milliy terma jamoasi a'zosining kamtarligi meni hayratga soldi.

Maqsud Veysalov Sirdaryo tumanida tavallud topgan. Olti yoshligidayoq unda sportga bo'lgan ishtiyoq sezilgan. Uning tarbiyasida amakisining o'rni katta – bolakayni sport zali bilan oshno qilishga, jismonan va ruhan kuchli bo'lishga o'rgatdi. Maqsud amakisining o'g'li Sulaymon bilan birga mashg'ulotlarga qatnay boshladi. Kurashlar mag'lubiyatsiz kechmasdi. Ana shunday paytda Maqsud alam hissini tuyar, o'zini doim g'olib bo'lishga loyiq deb hisoblardi. To'qqizinchi sinfni tugatgach, Gulistondagi


olimpiya zaxiralari kollejiga yo'llanma oldi...

Ilk yirik chempionat. Toshkentdagi «Universal» sport majmuasida kurashlar keskin tus olgan. Farg'ona, Toshkent, Andijon viloyatlarida erkin kurash bo'yicha o'ziga xos maktab yaratilgan, shu bois boshqa viloyatlarning kurashchilari ushbu hududlarning jamoa a'zolari bilan har tomonlama o'ylanib maydonga tushardi. Maqsud dastlab hayajonlandi.

Uning vazn toifasida raqobat kuchli edi. Ketma-ket uchta bahs. Uchallasida ham mutlaq g'olib bo'ldi! Sirdaryo-

dan chiqqan yangi polvon barchaning e'tiborini tortdi.

BAAda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida yapon, xitoy, arab kurashchilarini yengib finalga chiqdi. Finalda esa Eron terma jamoasi a'zosi uni kutib turardi. Bahs oson kechmadi. Maydonga g'urur bilan tushgan eronlik sportchi endigina o'n sakkiz yoshni qarshi olgan o'zbekistonlik kurashchiga bepisand yondashdi. Bu esa uning zarariga ishladi. Birinchi



raunddayoq yelkasi yerga tegdi. O'shanda Maqsud O'zbekiston bayrog'ini olib arena bo'ylab yugurarkan, o'zining qanday ulug' yurt farzandi ekanini chuqur his qildi.

Mana to'rt yildirki Maqsud Veysalov, ichki ishlar organlari tizimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U Sirdaryo viloyati IIB TVBSO safdor xodimi, serjant.

– Sport insonni nafaqat jismonan, balki ruhan tob-lashiga ushbu xodim orqali yana bir bor amin bo'ldim, – deydi Sirdaryo viloyati IIB TVBSO boshlig'i o'rinbosari, mayor Zafar Primqulov. – Serjant Maqsud Veysalov har tomonlama yetuk xodim. U o'z ishiga o'ta mas'uliyat bilan yondashadi.

Yosh xodimning hali orzulari ko'p. U jonajon yurtning sharafiga yanada yuksaltirishga bel bog'lagan.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV, o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Salomatlik

Lekin unutmash kerakki, smartfon, planshet va kompyuterdan me'yori-dan ortiq va noto'g'ri foydalanish ham jismoniy, ham ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. **Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi boshlig'i-shifokor, podpolkovnik Baxtiyor Sherqulov** bu borada tegishli ma'lumotlar bilan o'rtoqlashib, zarur tavsiyalar berdi.

Inson ko'zi tabiatan doimiy harakatga, ham yaqin, ham uzoq masofalarga almashib boqishga, tabiiy ranglar jilosini ilg'ashga moslashgan. Smartfon ekrani esa ko'z mushaklarini uzoq vaqt davomida bir nuqtaga – yaqin masofadagi sun'iy yorug'lik manbayiga zo'riqib tikilishga majbur qiladi. Oqibatda so'nggi yillarda aholi orasida ko'rish qobiliyati bilan bog'liq bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, bolalar oftalmologiyasida xavotirli statistika qayd etilmoqda. Ilgari yaqindan ko'rolmaslik (miopiya) kasalligi asosan yuqori sinf o'quvchilari orasida uchragan bo'lsa, bugun 3-4 yoshli munchoq ko'zli bolakaylar ham qalin shishali ko'zoyinak taqib yurganiga guvoh bo'lyapmiz.

Inson odatda ko'zlarini daqiqasiga o'rtacha 15–20 marta yumib-ochadi.

Bu harakatlar ko'z olmasini tabiiy namlantirishga yordam beradi. Bola ekranga tikilib qolganida esa ko'zni yumib-ochish daqiqasiga 3–4 martagacha kamayib ketadi. Natijada ko'z quriydi, achishish, qizarish va yoshlanish holatlari kuzatiladi, ko'zga nimadir qadalayotgandek his paydo bo'ladi, bular esa ko'z yuzasining yallig'lanishiga yo'l ochadi. Ko'z mushaklarining surunkali spazmi vaqt o'tishi bilan haqiqiy ko'rish zaifligiga olib keladi.

Gadjetlar ekranidan taraladigan qisqa to'lqinli moviy nur ko'z to'rpar-dasi hujayralarini to'g'ridan-to'g'ri

shikastlaydi. Eng yomoni, bu nur miyaga «hozir kunduz mahali» degan soxta xabar yuboradi va uyqu gormoni – melatonin ishlab chiqarilishini butunlay bloklaydi. Oqibatda bolaning uyqu rejimi buziladi va organizm qayta tiklanishi qiyin kechadi.

Gadjetlardagi rang-barang videolar, tez almashadigan lavhalar, raqamli o'yinlardagi g'alabalar bola miyasida sun'iy ravishda dofamin gormoni (huzurlanish, rag'bat va mukofotlanishdan zavq olish hissi) keskin ortishiga sabab bo'ladi. Bola oddiy o'yinchoqlardan, mutolaadan yoki ota-ona bilan suhbatdan bunday zavqni ololmaydi, real ha-

tengdoshlari bilan muloqotda qo'pol-lashadi, his-tuyg'ulari salbiy tarafga o'zgaradi. Tunda tez-tez cho'chib uyg'onishlar, tishlarni g'ichirlatish va surunkali charchoq ham aynan asab tizimi zararlani-shi oqibatidir.

Shiddatkor zamonda bo-

o'chirilgan qorong'i xonada planshet yoki smartfondan foydalanishga yo'l qo'ymaslik lozim.

Unutmash kerakki, ko'zlarni ham «havolantirish» zarur. Kun tartibiga amal qilish va toza havoda tez-tez sayr qilish bolaning ko'rish qobiliyati buzilishidan asraydi. Farzandingiz o'z vaqtida va me'yorida uxlab,

uyquga to'yishiga ahamiyat qarating. Uyqu chog'ida bolalarda o'sish va rivojlanish uchun muhim jarayonlar kechadi. Me'yorida uxlamaslik esa holsizlik, quvvatsizlik, asab tizimi faoliyatining buzilishi va ba'zi kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.


Uyqudan 2 soat oldin har qanday gadjetdan foydalanishni to'xtatish kerak. Eng muhimi – shaxsiy namuna. Agar ota-ona telefonga muk tushib, ijtimoiy tarmoqlardan bosh ko'tarmasa, boladan kitob o'qishni yoki sport bilan shug'ullanishni talab qilish befoyda. Farzandingizga bera oladigan eng qimmatli sovg'angiz – bu qimmatbaho smartfon emas, balki u bilan birga o'tkazilgan jonli vaqt, suhbat va mehrdir.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

GADJETNING KO'Z VA RUHIYATGA TA'SIRI

Bugungi kunda yosh-u qari ishda, o'qishda va uyda gadjetlarsiz hayotini tasavvur qila olmasligi rost gap. Ko'pchilik ota-onalar ro'zg'or yumushlarini tinchgina bajarib olish uchun yoki «xarxasha qilmasa bo'lgani» degan fikr bilan hatto go'dak farzandlari qo'liga ham telefon tutqazib, bolani shu tarzda tinchlantirmoqda.

” Bugun 3–4 yoshli munchoq ko'zli bolakaylar ham qalin shishali ko'zoyinak taqib yurganiga guvoh bo'lyapmiz.



yot unga zerikarli va rangsiz bo'lib tuyula boshlaydi. Bular bora-bora fikrni jamlay olmaslik, xotira susayishi va darsda o'zlashtirish pasayib ketishiga olib keladi, bola betoqat, injiq va ta'sirchan bo'lib qoladi. Tez-kor o'yinlardagi zo'ravonlik sahnalari esa bola ruhiyatiga ko'chib o'tadi: u

larni gadjetlardan butunlay uzib qo'yishning iloji yo'q. Lekin foydalanish me'yorini nazoratga olish har bir ota-onaning to'g'ridan-to'g'ri burchidir. Yuqoridagi salbiy holatlarning oldini olish uchun bola ulardan kuniga ko'pi bilan 1 soat foydalanishiga ruxsat berish, chirog'i

Xorij detektivi



Donald UESTLEYK – detektiv, fantastika hamda hajviy janrlarda samarali ijod qilgan amerikalik yozuvchi va kinossenarist. O'z asarlarida jinoyat olami, inson psixologiyasi va ijtimoiy munosabatlarni mahorat bilan tasvirlagan, zamonaviy detektiv adabiyotining yirik namoyandaligidan biri. U 1933-yil AQSHning Nyu-York shahrida tug'ilgan. Ijodiy faoliyatini 1950-yillarda boshlagan va o'zining qiziqarli syujetlari, o'tkir yumori va detektiv asarlari bilan kitobxonlar orasida keng tanilib, bir qator nufuzli mukofotlarga sazovor bo'lgan. Jumladan, 1993-yilda «Edgar Allan Po» mukofoti, 2004 yilda «Sheymus» mukofoti va 2008-yilda «Gumshoe Awards» mukofoti bilan taqdirlangan.



BIR «TASHRIF» NING AHAMIYATI

Men chap qo'lim ostiga to'pponcha g'ilofi kamarini mahkamlayotganimda, Garri mehmonxonaga qaytdi.

– Ovora bo'lma, Ralf, ishimiz ertaga qoldi, – dedi u.

– Ertaga? – so'radim men. – Bu nima deganing?

U kamzolini yechib, divan ustiga irg'itdi.

– Bank yopiq.

– Bo'lishi mumkin emas! – e'tiroz bildirdim men. – Axir, bugun seshanba-ku!

– Shu joyida adashding, bo'lishi mumkin, – dedi Garri.

So'ng to'pponchasini g'ilofidan chiqarib, uni ham divanga otdi.

– Bugun hamma joy yopiq bo'lishi mumkin. Chunki bugun – Griffin kuni.

– Nima kuni?

Men boshimni egib, uzoqdan eshitilayotgan orkestr sadolariga quloq tutdim.

– Ular mashhur hamshahariga shaharning ramziy kalitini topshirishmoqchi, – dedi Garri.

– Buni qara-ya, qanday yaxshi.

– Tantanali nutq so'zlovchilar, gul ko'targan bolalar, xursandchilik va hokazo.

– Hammasi naqadar chiroyli, hatto ko'nglim behuzur bo'ldi.

– Nega? Axir, u orbitada bo'lgan, – dedi Garri kulimsirab.

– O'sha yoqda qolaversa bo'lar-kan, – kesatdim...

– Ertaga ishlaymiz.

– Tushundim, – dedim, – lekin baribir jahlim chiqyapti.

Bu holat Garridan ko'proq meni g'azablantirdi, chunki «operatsiya»ni aynan o'zim rejalashtirgan-

bo'lmasligi mumkin, lekin ulkan va qudratli kemani cho'ktirish uchun ba'zan birgina mitti teshikning o'zi yetarli bo'ladi. Bolaligimda bu iborani bir yerda o'qib qattiq ta'sirlangandim.

Tabiatan tashkilotchim. Bu bankni uch haftalik o'rganishlardan so'ng topdim, ungacha hatto reja ham tayyor emasdi. Keyin besh kun davomida rejani ishlab chiqib, bosqinchilik uchun qulay usulni, qulay vaqtni va qulay qochish yo'lini topishga, qisqasi, hamma ishni ipidan ignasigacha tashkil-lashtirishga urindim. Men hisobga olmagan birgina jihat – shu shaharchada tug'ilib o'sgan va aynan o'sha kuni o'z yurtiga kelishga qaror qilgan kosmonavt edi.

Xullas, ishni chorshanba kuni amalga oshirdik. Soat roppa-rosa

esa tushlikka chiqib ketishardi. Tushlik mahali bankda mijozlar ko'p bo'lgani bois, xodimlar odatdagidan kech ovqatlanishga majbur edilar.

Rejaning qolgan qismi ham chorshanba kuni seshanbadan kam samara bermasa kerak. Mo'ljalimcha, svetoforlar haftaning har bir kunida bir xil ishlaydi, samolyotlar jadvali ham o'zgarmagan, halqa yo'lidagi transport harakati esa boshqa kunlardagidan farq qilmaydi. Shunday bo'lsa-da, baribir biror narsa mening ixtiyorimdan tashqari o'zgarishini yoqtirmayman.

Soat 15:00 ga bir daqiqa qolganda, belgilangan vaqtdan bir daqiqa oldin Garri sumkalarini pullar bilan to'ldirib bo'ldi. Ikkimiz eshik yoniga bordik. Soniya millari yana bir bor aylanib chiqqanida, Garri to'pponchasini g'ilofiga soldi, keskin bir harakat bilan niqobini yechdi va sumkani ko'targancha tashqariga yo'naldi. U yerda biz o'g'irlagan «Ford» mashinasi turardi. Garri mashinani o't oldirguniga qadar, hammani nazorat ostida ushlashda davom etdim, so'ngra o'n sakkiz qadam tashlab unga yetib oldim va biz yo'lga tushdik. Ko'cha muylushida svetofor o'z chiroqlari rangini o'zgartirib turardi.

– Soatiga yigirma ikki milya, – dedim men, svetoforning qizil chirog'iga qarab.

– Bilaman, – dedi Garri. – Xavotir olma. Hammasi esimda.

Yashil chiroq aynan biz chorrahaga yetib kelgan paytda yondi va mashina tezlikni kamaytirmagan holda chorrahadan o'tib ketdi. Orqaga qaraganimda, bank eshigidan hovliqqancha yugurib chiqayotgan odamlarni ko'rdim.

Kvartalning o'rta qismiga yaqin joyda, o'ng tomonda kichik bir xiyobon ko'rinib turardi. Garri ehtiyotkorlik bilan rulni burdi va tor ko'chaga kirib ketdi. Oldinda yana bir avtomobil turardi. Garri tormozni bosdi, men sumkani mahkam bag'ringa bosdim va biz «Ford»dan sakrab tushdik. Garri kapotni ochib, bir talay simlarni sug'urib oldi, so'ng kapotni yopdi va mening ortimdan yugurdi.

(Davomi bor.)



Griffin, – aniqlik kiritdi u va ko'ylagining yoqasini bo'shatib, o'zi ham divanga cho'zildi. – Kenni Griffin kuni. U astronaut, shu shaharda tug'ilib o'sgan, keyin kesatib qo'ydi. – Bugun «janobi oliylari» bu yerga «tashrif buyuryaptilar». Shahar ahli uning sharafiga tantanali namoyish tashkil qilibdi.

– Bank oldidami?

– Nima farqi bor? – U ostida qolib ketgan to'pponchani olib, bir chetga qo'ydi va yostig'ini to'g'rilab, ko'zlarini yumdi. – Bank baribir ishlaymaydi.

dim. Men esa reja buzilishini yoki nimadir o'zgarishini yomon ko'rganman. Hatto bu o'zgarishlar kichik va arziyas bo'lsa ham, kayfiyatim buziladi. Endi esa bu shaharchada yana bir kun qolishimizga to'g'ri keladi. Bu esa bizni tanib qolishlari ehtimolini oshiradi. Samolyot chiptalarini ham almashtirishga majburiyatimiz va qaysidir ziyrak klerk buni eslab qolishi mumkin. Mayamidagi mehmonxonaga ham bir kun kechikib borishimiz tufayli xodimlarning e'tiborini jalb qilamiz. Buning qo'rqinchli tomoni

14:54 da yuzimizga niqob taqqan holda bankka kirib bordik va bor ovozimiz bilan: «Hech kim joyidan qimirlamasin!» – deb baqirdik. Hamma joyida qotib qoldi. Men bankdagi odamlar va kirish eshigidan ko'zimni uzmay turgan paytimda, Garri to'sin ortiga o'tib, sumkaga pullarni joylay boshladi.

Aytish joizki, rejamiz chorshanba kuni ham chakki bo'lmadi. Odatda, hafta o'rtasi uch kun – seshanba, chorshanba va payshanba kunlari – soat 14:54 da bankda faqat uch nafar xodim qolar, boshqalar

Rus tilidan
Gulchehra AZIMOVA
tarjimasi.

Aks-sado

BOLALAR UCHUN NASHRLAR KERAK

Maktab o'quvchilarining har tomonlama bilimlari, tafakkuri keng va dono bo'lib voyaga yetishlarida bosma nashrlarning o'рни beqiyos. Ular nafaqat bilim manbai, balki yosh avlodni vatanparvarlik, ma'naviyat va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalaydigan muhim vositadir.

Afsuski, so'nggi yillarda ko'plab gazeta va jurnallar faoliyati to'xtab qoldi. Bu holat, ayniqsa, bolalar uchun mo'ljallangan nashrlarning qisqarib ketishi bilan yanada achinarli tus oldi. Chunki aynan shu toifadagi nashrlar yoshlar ongi va dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega edi.

Shunday bir paytda «Postda – Ha posty – At-the-Post»

dim. Zero, bizning gazetamiz – «Bilag'on» ham majburiy obuna bilan bog'liq muammolar sabab chop etilmay qolgandi...

Ma'lumotlarga ko'ra, «Postda – Ha posty – At-the-Post» gazetasi qariyb 50 ming nusxada chop etilmoqda. Agar har bir oilada kamida ikki nafar bola borligini hisobga olsak, bu degani yuz mingga yaqin bola ushbu nashr orqali ma'naviy ozuqa olayotgan bo'ladi. Bu esa jamiyatimiz kelajagi uchun juda muhim ko'rsatkichdir.

Maktablarda iqtidorli, izlanuvchan va ijodkor o'quvchilar nihoiyatda ko'p. Faqat ularni ko'ra bilish, to'g'ri yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash zarur. Ana shunday imkoniyatni aynan bolalar nashrlari yaratadi. Bu nafaqat bolalarni mutolaaga oshno etadi, balki ularning qalbida ijodga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otib, o'z fikrini erkin ifoda etishga undaydi.

Mana shunday xayrli va ezgu tashabbusni amalga oshirgan tahririyat jamoasiga ulkan minnatdorlik bildirib, kelgusi faoliyatlari omad va zafarlar tilayman.

Farhod NE'MATOV,
jurnalist.



Musaffo osmon ostidagi beg'ubor bolalik – eng katta boylikdir. Ulug'vor tog'lar yurtimiz sarhadlarining mustabkam qo'rg'oni bo'lsa, mard ichki ishlar organlari xodimlari har bir bolaning tabassumi va xavfsizligi qalqonidir. Biz birgalikda farovon va baxtli kelajakni barpo etamiz!

gazetasida bolalar uchun yangi «Bola'on» ilovasi yo'lga qo'yilgani juda xayrli bo'ldi. Rosti, uzoq yillar davomida maktab bolalari uchun mo'ljallangan gazeta chiqarib, o'quvchilarni mutolaaga chorlash, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida ozgina bo'lsa ham xizmat qilgan jurnalist sifatida bundan juda ham quvon-

Hajviya

ASABNI ASRANG

Asab xastaligiga duchor bo'lganlarni ko'rsam ensam qotadi. Chunki, kuyib-pishib yetib kelgan joyi kasalxonada. Sizga aytsam odam be-gemotday beparvo bo'lishi kerak. Ana shunda hech qachon yutqazmaysiz. Kasallik nima bilmaysiz, og'irligin-giz ham joyida, eng muhimi sog'u salomatsiz. Kuydi-pishdi odamning ahvoli-chi, sho'rlikning yarim umri to'shakda o'tadi.

Xotirjam yurish unchalik qiyinmas. Masalan, ertalab ishga chiqish oldidan tuflini yaltiratib tozalab avtobusga chiqasiz. Al-laqanday nusxa oyog'ingizni bosib oladi.

Og'riqqa-ku, bir amal-lab chidaysiz, ammo hafsala bilan tozalangan tuflida uning oyoq izi qoladi. Qarab turib asabingiz buziladi. Azaldan iflos tuflini yoqirmaysiz, beixtiyor ko'zingiz qizarib hezlanasiz.

– Ho', befarosat, ko'z qayoqda?! Ko'zingga... oyoqni bosding-ku.

Gunohkor yoshi katta, ko'pni ko'rgan bosiq odam bo'lsa xo'b-xo'b, uzr so'rab hovur-ingizdan tushiradi. Aksiga olib «uch barmoq»li yoshlardan bo'lsachi? Ko'zini lo'q qilib, – O'zingni ko'zingga ..., kerak bo'lsa oyog'ingni ko'tarib yur, – deyishi hech gapmas.

Qarabsizki, janjal tayyor. Hammasi mayli-yu, ikki orada asabingizning ishdan chiqqani chatoq.

Endi buning boshqacha variantini olib ko'raylik. Yaltiragan tuflini bilan avtobusga chiqasiz, bosib olishadi. Botinka rasvo bo'ldi, oyoq esa og'ridi. Biroq siz parvo qilmaysiz. Bosgan nusxaga qarab miriqib tirjayib qo'yasiz.

Chunki... Chunki, siz tuflini tozalayotganda «agar tuflimni kim bosib olsa...» deb oldindan rosa so'kib qo'ygansiz. Xullas, hammasi joyida. Bosib olgan nusxa dakki eshitmagani-dan xursand, siz esa xumoridan chiqquncha oldindan so'kib qo'yganingizga.

Ha, birodar, bosliqlikda gap ko'p. Boshingizga olashaqshaq o'tirib ketsa baqir-chaqir



qilib o'tirmang. Qush so'kishni tushunmaydi. Yigirmanchi asrning kal dohiysiga o'xshab asabingizni buz-mang-da, filga qanot bermaganiga shukur qiling.

Abduhamid MUXTOROV

Qatra

BIR TOMCHI SUV

Ulg'ayib qolgan o'g'lining umrini ma'nisiz o'tkazayotgani, qimmatli vaqtini behuda ishlarga sarflayotgani otani qattiq tashvishga solardi. Bir kuni u farzandiga ortiqcha gap-so'zsiz hayotiy saboq berishga qaror qildi.

Birgalikda sayr qilishga chiqishdi. Havo toza, atrof sokin, ota va o'g'il yam-yashil maysalar ustida yurib borishardi. Nihoyat ikkovlon bir ko'l bo'yiga yetib kelishdi. Ota engashib, qo'lini ko'lga botirdi. Keyin barmog'ida qolgan suv tomchisini bir yaproq ustiga asta qo'ydi va o'g'luga «yaqinroq kel» deb imo qildi.

– Qara, – dedi u. – Bu tomchi mittigina, lekin atrofidagi hamma narsani: buta, daraxt, osmon va bulutlarni o'zida aks ettiradi. Vaqt ham xuddi shunday. Quyosh chiqishidan to botgunicha nimaiki qilgan bo'lsang, ular kun-



ning har bir daqiqasida mujassam bo'ladi. Har bir lahzani qayergadir boshlaydi yoki barmoqlar orasidan sizib tushgan tomchi kabi behuda oqib ketadi. Ushbu soniyalarda sen kechirgan butun kun gavdalanadi. Vaqtini behuda sarflamaslik, undan samarali foydalanish va hayotini mazmunli qilish har bir insonning o'z qo'lida.

Gulchehra AZIMOVA
tarjimasi.

<p>MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI</p>		<p>TELEFONLAR: 71-231-33-88; Obuna masalalari bo'yicha: 71-231-38-74; 97-420-89-24</p>		<p>Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014.</p>		<p>Buyurtma № 1678. Bosilish – ofset usulida. Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 49745 nusxada chop etildi.</p>	
<p>Bosh muharrir podpolkovnik Xurshidbek RO'ZIYEV</p>		<p>Mas'ul muharrir Erkin SATTOROV</p>		<p>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi. Shaxsiy h/v 460010860262877031101179003 STIR 200637499.</p>		<p>Obuna raqamlari: Yakka tartibda – 180. Tashkilotlar uchun – 366. Bosishga topshirish vaqti – 22.00. Bosishga topshirildi – 21.00. Sotuvda kelishilgan narxda.</p>	
<p>Bosh muharrir o'rinbosarlari podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV mayor Aziza BOHODIROVA</p>		<p>Veb-dizaynerlar Zokir BOLTAYEV Ilhom JUMANOV Akbar BOLTAYEV</p>		<p>Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.</p>		<p>«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.</p>	
<p>Navbatchilar Shuhrat RO'ZIYEV Yuliy MUSTAFAYEVA</p>		<p>Web-site: www.postda.uz E-mail: info@postda.uz</p>		<p>Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.</p>		<p>9 77 2010 5355</p>	